

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI

«Himoyaga ruxsat etildi»
Pedagogika fakulteti dekani,
dotsent _____ K.Boymirzayev
«__» _____ 2018 y.

5110800-Tasviriy san`at va muxandislik grafikasi
yo`nalishi bitiruvchisi
Boltaboev Azizbek Xasanboy o`g`lining

“BADIY BUYUMLARDA MINIATYURA ASARLARI TALQINI”
mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»
Tasviriy san`at va muxandislik
grafikasi kafedrasi mudiri
_____ dots. O'.Abdullayev
«__» _____ 2018 y.

BMI rahbari: professor
_____ A.A.Akparov

MUNDARIJA

KIRISH	3
I.bob. Miniatyura san`ati	8
1.1. Miniatyura san`ati tarixi, arab va eron miniatyura san`ati.....	8
1.2. Temur va Temuriylar davri miniatyura san`ati.....	15
1.3. Kamoliddin Behzod ijodi.....	20
II. bob. O`zbekiston miniatyura san`ati	27
2.1. XVI–XVII asrlar miniatyura san`ati.....	27
2.2.XVIII–XIX asrlarda Movarounnahr miniatyura maktablari.....	32
2.3. Ijodiy ishni yaratilishi.....	38
XULOSA	44
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	45
ILOVA	48

KIRISH

Qadimgi nodir qo`lyozmalar, buyuk bobokalonlarimizdan bizgacha saqlanib qolingan badiiy adabiyot, she`riyat durdonalari ichidagi nafis, mo`jaz tasviriy san`at asarlari alohida o`ziga xos, betakror go`zallik, nafasat olamiga ega. Ulardagi yorqin ranglar, nozik chiziqalar va o`ziga xos mutannosiblik hamon dunyo san`at ahlini lol qoldirib kelmoqda. Shuning uchun ham bu asarlar jahonning eng nufuzli muzeylari, shaxsiy kolleksiyalari, kutubxonalarida asrab–avaylab saqlanib kelinmoqda.

Jahon tasviriy san`ati xazinasidan munosib o`rin olgan bu mo`jaz rasmlar–miniatyura asarlari Sharq xalqlarining bebaho badiiy merosidir. U an`anaviy kitobat san`atining tarkibiy qismi bo`lib, nodir qo`lyozmalarni ziynatlash bilan birga, mazkur asarlardagi badiiy g`oyalarni ochib berishga xizmat qilgan.

Yaqin va O`rta Sharq madaniy markazlari bo`lmish Bog`dod, Tabriz, Samarqand, Buxoro, Hirot, Sheroz kabi shaharlarda X–XIX asrlar davomida maxsus miniatyura maktablari mavjud bo`lib, ba`zan yuksak darajada rivojlangan, ba`zan esa tanazzulga yuz tutgan.

Nafis mo`jaz rasmlar asosan ilmiy, badiiy va tarixiy asarlarning nodir qo`lyozmalarini bezashga xizmat qilgan. Rassomlar asarlarning yetakchi g`oyalari va asosiy qahramonlari obrazlarini ranglar vositasida ifodalaganlar. Shu sababli miniatyura san`ati taraqqiyotiga Sharqning atoqli allomalari Muhammad ibn Muso al -Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, mutaffakir va shoirlari Abdulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy hamda mashhur tarixchilar Fazlulloh Rashididdin, Sharofiddin Ali Yazdiy va boshqalar asarlaridagi ilg`or insonparvarlik g`oyalari ijobiy ta`sir ko`rsatib, uning asosiy taraqqiyot yo`nalishini, yetakchi badiiy–estetik an`analarini shakllanishiga xizmat qilgan.¹

Sharq xalqlari tasviriy san`ati, xususan miniatyurani o`rganish, ilmiy tahlil qilish XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to`g`ri keladi. Bu sohada xorijiy

¹ Шарқ миниатюра мактаблари. Мақолалар тўплами. Т; 1989 й. Нафосат олами. 5-6 бб.

olimlardan F.Martin, T.Arnold, B.Robinson, B.Grey va shu kabi boshqalar Sharq miniatyura namunalari ilmiy tahlil qilish, eng yaxshilarini nashr ettirish, yetakchi maktablar taraqqiyoti va tarixini o`rganish hamda targ`ib qilishda qator muhim ishlarni amalga oshirdilar. Ammo ularning tadqiqotlarida, tasvirlar tahlilida yuzakilik, Sharq xalqlari hayotini yaxshi bilmaslik kabi nuqsonlar uchraydi.

V.V.Stasovning «Vizantiya, bolgar, rus, chig`atoy va fors qo`lyozmalarining ba`zi miniatyuralari» nomli kitobi (Petrograd, 1902), B.P.Denikenning «Sharq san`ati» (Qozon, 1923) va «Eron rangtasviri» (Moskva, 1938) kitoblarida miniatyura maktablari taraqqiyotiga katta e`tibor berilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda B.V.Veynari, S.I.Tyulyayev, G.I.Kostigova, O.F.Akimushkin, A.A.Ivanov, O.I.Galerkina, T.V.Grek, T.P.Kalterova, N.V.Dyakonova, Sh.M.Shakurov kabi rossiyalik olimlarning Sharq miniatyurasi va hattotlik san`atini o`rganishga qo`shgan hissalar ham katta bo`lgan.

XX asr oxirlariga kelib Ozarbayjon, Tojikiston va O`zbekistonda Sharq miniatyura va kitobat san`atini o`rganishga e`tibor yanada kuchaydi. O.YU.Qoziyev, K.J.Karimov, A.V.Salamzoda, N.Zamonov, J.Yu.Hasanzoda va shu kabi boshqa san`atshunos–olimlar Ozarbayjon va Sharq miniatyura san`atini o`rganadilar.

Sobiq Ittifoq davrida O`zbekistonda Sharq miniatyura san`atini ayrim rasmi, qo`lyozmalar bilan tanishish A.A.Semenov, B.S.Sergeev, G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel, V.G.Dolinskaya va boshqalarning maqolalari bilan boshlangan. Bularni ichida sobiq ittifoq Fanlar akademiyasining haqiqiy a`zosi Galina Anatoliyevna Pugachenkovning xizmatlarini alohida e`tirof etish mumkin. Olimaning ko`plab maqolalaridan tashqari, hamkorlikda yaratilgan salmoqli tadqiqotlari «O`zbekiston san`ati tarixi» (Moskva, «Iskustvo», L.I.Rempel bilan hamkorlikda yaratilgan 1965), «O`rta Osiyo miniatyuralari» (Moskva, «Izobrazitelnoe iskustvo», 1979, O.Galerkina bilan hamkorlikda yaratilgan), «O`rta Osiyo san`ati ocherklari» (Moskva, «Iskustvo», 1982, L.I.Rempel bilan hamkorlikda yaratilgan), xalqimiz badiiy madaniyatini yoritishda ahamiyati katta.

Sharq miniatyura va kitobat san`atini o`rganishda, nashr qilishda, dunyoning eng nufuzli muzey va kutubxonalaridan qidirib topishda Hamid Sulaymonovning xizmatlari ko`zga yaqqol tashlanadi. Olim tartib bergan «Boburnoma rasmlari» (Toshkent, «Fan», nashriyoti, 1970, albom yana uch bor qayta nashr etilgan), «Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar» (Toshkent, «Fan», nashriyoti, 1970) hamda F.K.Sulaymonova bilan hamkorlikda chiqargan «Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar» (Toshkent, «Fan», nashriyoti, 1982) va «Amir Xusrav Dahlaviy asarlariga ishlangan rasmlar» (Toshkent, «Fan», nashriyoti, 1983) nomli albomlar asosiy manbaalardan hisoblanadi.

1989 yili «Sharq miniatyura maktablari» (maqolalar to`plami, to`plovchilar A.Madraimov, N.Normatov) nashr qilindi. Ushbu kitobdan Zuxra Rahimovaning «Arab miniatyura maktabi», Noila Valiulinaning «Eron miniatyura maktabi», Naim Norqulovning «Turk miniatyura maktabi», Abdumajid Madraimovning «Ozarbayjon miniatyura maktabi», «Hind miniatyura maktabi», «Alisher Navoiy portretlari», «Alisher Navoiy va kitobat san`ati» nomli maqolalari bilan bir qatorda «An`analar va qayta tiklanish» sarlavhasi ostida ham zamonaviy miniatyura san`ati ijodkorlari hayoti va faoliyati yoritib berilgan.

Mustaqillik yillarida miniatyura san`ati har tamonlama chuqur o`rganila boshlandi. Jumladan, 2006 yilda Shoxalil Shoyoqubov o`zining ko`p yillik tajribasidan va qadimdan qolgan meroslarimizga asoslangan tarzda o`zbek, rus va ingliz tillarida “Zamonaviy O`zbekiston miniatyurasi” (Sovremennaya miniatyura Uzbekistana, Contemporary miniature paintings of Uzbekistan. Toshkent, 2006) kitobini nashr qildirdi. Undan miniatyurachi rassomlardan M.Po`latov, K.Mirzayev, T.Boltaboyev, U.Qosimov, Sh.Shoahmedov, Sh.Muhammadjonov, A.Qambarov, Sh.Shoyoqubov, D.Po`latova, Sh.Rixsiyev, A.Tursunov, D.Shoahmedov, O.Irmatov S.Po`latov, F.Rahmatullayev, J.Saydaliyev, A.Saydaliyev, B.Yo`ldoshev, N.Xolmatov, T.Qoraboev, Sh.Shoyoqubov, M.Olimjonov, G`.Kamolov, X.Nazirov, T.Ikromov, O.Irmatov, N.Shoahmedov, A.Qambarov, R.To`xtayev, M.Sotiboldiyeva kabi ko`plab ijodkorlarning asarlari joy olgan.

Yuqorida keltirilgan Sharq miniatyura san`atiga oid adabiyotlar, albomlar bir qarashda bu soha juda chuqur va atroflicha o`rganilgan degan yanglish xulosaga olib kelishi mumkin. Lekin, juda ko`plab nodir rasmlar, rasmi qo`lyozmalar jahonning turli muzey va kutubxonalarida saqlanib kelinmoqda, ular hali o`rganilgani ham nashr etilgani ham yo`q.

Ayniqsa, buyumlarga ishlangan miniatyuralar deyarli o`rganilmagan desak mubolag`a bo`lmasa kerak. Chunki, biz tadqiqot ishimizni boshidan miniatyura san`ati tarixini, bugunni o`rganish jarayonida shunga amin bo`ldik.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda va talaba–yoshlarga amaliy yordam berish maqsadida bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini “**Badiiy buyumlarda miniatyura asarlari talqini**” –deb belgilab oldik.

Bitiruv malakaviy ishimiz **d o l z a r b l i g i** ni miniatyura san`atini hajmli buyumlarga ishlash texnologiyasini ilmiy tahlil qilishimizda, ayniqsa, poliz ekini mahsuloti bo`lgan qovoq va milliy san`atimiz uyg`unligini o`rganish tashkil qiladi.

Tadqiqot ishimizning **i l m i y y a n g i l i g i** biz tanlagan mavzu bo`yicha ilk tadqiqot ishini olib borishimizda o`z aksini topadi.

A m a l i y a h a m i y a t i mavzu materiali asosida talaba yoshlarga miniatyura san`ati haqida, jumladan, buyumlarga miniatyura ishlash sirlarini egallashlari yo`lida amaliy maslahatlar berganimizda hamda shu vaqtga qadar miniatyura san`atini o`rganilmagan qirralarini ochib berganimizda namoyon bo`ladi. Tadqiqotning natijasi yordamida talaba-yoshlarning ijodiy ishlari saviyasi oshishida bizning tadqiqotimiz o`zining amaliy yordamini beradi degan umiddamiz.

Malakaviy ishimizning **m y e t o d o l o g i k a s o s i** ni Mustaqil O`zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi davlat hujjatlari, rassomlar ijodi, gazeta va jurnallar materiallari tashkil qiladi.

Mavzuni to`liq yoritib berish uchun biz o`z oldimizga quyidagi **m a q s a d v a v a z i f a l a r** ni belgilab oldik.

- miniatyura san`atining o`ziga xos tomonlarini o`rganish;
- miniatyura san`ati tarixi va bugunini tahlil qilish;

- hajmli buyumlarga ishlangan miniatyura san`ati haqidagi manbaalarni o`rganish;
- qovoq va uni afzalliklari hamda unga miniatyura ishlashni o`rganish;
- o`rganilgan manbaalar va rassomlar tajribasi asosida ijodiy ish bajarish;
- mavzu materiali asosida, olib borilgan tadqiqot natijasiga ko`ra taklif va mulohazalar, tavsiyalar ishlab chiqish.

1-bob. Miniatyura san`ati.

1.1. Miniatyura san`ati tarixi, arab va eron miniatyura san`ati.

O`zbek xalqining tasviriy san`ati juda ham qadimiy bo`lib, uning sarchashmalari ibtidoiy jamoa davridan, tosh asridan boshlanadi. Turli ranglar vositasida toshga bitilgan juda ko`p tasvirlar yurtimiz janubida, Ko`hitang tog`idagi Zarautsoydan topilgan. Zaraut (so`g`diycha Zaraus-tog` oralig`ining o`t-o`larga va suvga mo`l joyi) kamaridagi ho`kizlar ovi tasviri diqqatga sazovvor.

Ibtidoiy davrga doir tog` tasvirlari Samarqand yaqinidagi Ikonsoy va Oqsoydan, Toshkent yaqinidagi Xo`jakentdan, Farg`onadagi Suvratsoy va shu kabi boshqa ko`plab joylardan topilgan.

Tasvir, naqsh, hattotlik, zargarlik ajdodlarimizning juda ham qadimiy hunarlari bo`lgan. Yuksak did va badiiy nafosat bilan ishlangan ro`zg`or buyumlari, chiroyli xusnixatlar bilan ko`chirilgan bezakli va sur`atli kitoblar har bir xonadonda qadimdan e`zozlab kelingan. Qadimiy ko`shk, saroy hamda chorpoqlar tasvirli va naqshin bo`lgan. Bularning barchasi arxeologik topilmalar va san`atshunoslarimiz tadqiqotlari tufayli ma`lum bo`lmoqda.

Chor Rossiyasi hukumati Turkiston xalqlarini qoloq, madaniy hayotga layoqatsiz, rivojlanishga munosib bo`lmagan aholi deb bilar edi. Uning siyosati mahalliy aholini xo`rlash va kamsitishga asoslangan edi.

Sobiq Ittifoq davrida esa birmuncha ishlar amalga oshirildi. Biroq, u davrda ham partiya siyosatiga to`g`ri kelmagan milliy san`atimizga katta zarar yetkazildi. Uning boy tarixi, madaniyati yuzaki tarzda o`rganildi. O`rta Osiyo jahonning eng qadimiy madaniy markazlaridan biri bo`lganligi o`z isbotini topdi. Ammo, bu ish katta qiyinchiliklar va mashaqqatli tadqiqotlar tufayli amalga oshirilgan. Birinchidan, milliy san`atimiz, qadimiy an`analarimiz, urf-odatlarini o`rganish "millatchilik" tang`asi bilan muhrlanar va olimlarimiz qamalib, surgun qilinar edi. Ikkinchidan, esa O`rta Osiyo xalqlarining barcha me`moriy obidalari, zebu-ziynatlari, yuqori did bilan yozilgan, bezatilgan kitoblari muttasil chet el bosqinchilari tomonidan talon-taroj qilib kelindi. Abu Rayhon Beruniyning

yoʻzishicha: «... yunonistonlik foh Iskandar Oʻrta Osiyo xalqlarining ilmu-fan xazinalarini oʻz mamlakatiga olib ketdi. Iskandar va uning vorislari tomonidan hayot vositasi boʻlgan va faxr qilinadigan goʻzal sanʼatlar barbod etilgan edi. Iskandar koʻplab kitoblarni kuydirgan, ajoyib binolarni vayron qilgan»².

Mazkur fikrni Iskandar bilan kelgan yunon muarrixii Kvint Kurtsiy ham tasdiqlaydi. «Togʻli qabiladan shikast yegan Iskandar toʻrtinchi kuni Maroqanda shahriga yetdi. Uning devori yetmish stadiy uzunlikda boʻlib, qalʼasi boshqa devor bilan oʻralgan edi. Shahar mudofasi uchun ming jangchini qoldirib, Iskandar tevarak-atrofdagi qishloqlarni tolaydi va yondirdi... soʻng, u Tanays daryosi tomon yurdi va toʻrt kun oʻtib Maroqandaga qaytdi. U eng goʻzal shahar boʻlib, uni aylanib oqayotgan daryo tufayli yaxshi muhofaza etilgan»³.

1965 yili Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya va Madaniyat vazirligining Sanʼatshunoslik ilmiy tadqiqot instituti xodimlari tomonidan Afrosiyobda soʻgʻdiylarning yettinchi asrga oid devoriy rasmlari kashf etildi.⁴ Qalʼa devorlaridan birida birmuncha yaxshi saqlanib qolgan surʼatlar topildi.

Termiz yaqinidan, Tuproqqalʼa ibodatxonasidan topilgan eramizning birinchi va uchinchi asrlariga doir tasviriy sanʼat namunalari: jangchi qiz, uzum va shaftoli terayotgan ayol tasviri Oʻzbekistonda oʻziga xos taraqqiy topgan tasviriy-badiiy markazlar boʻlganidan dalolat beradi.

1908 yili Samarqandning Biyanayman qishlogʻidan topilgan sopol va chinni idishlardagi tasvirlar ham diqqatga sazovordir. Ularning birida ark, peshtoqida islmiy naqshlar, uning ustunlari yonida tojdor odamlar, qilichlarida ilon surʼati, baʼzilarining qoʻlida manqal.

1939-1940 va ikkinchi jahon urushidan keyingi yillar Buxorodan topilgan yettinchi-sakkizinchi asrlarga doir buxorxudotlar saroyi Varaxsha tasviriy sanʼati topilmalari ham katta ilmiy va estetik qimmatga ega. Varxsha tasvirlarining toʻla kompozitsiyasini tiklash imkoni boʻlmasa ham ularning muayyan mazmundagi sahnalardan tashkil topganini kuzatish mumkin.

² Абу Райхон Бериуний. Танланган асарлар I жилд. Тошкент, «Фан» нашриёти, 1968, 83 –бет

³ И.В.Пьянков. Древний Самарканд (Мароканды) в извятиях античных авторов. Душанбе, 1972. 12 13 бб.

⁴ Л.И.Альбаум. Живопись. Арасиаба. Ташкент, «Фан» 1975.

Samarqand yaqinidagi qadimiy Panjikentning arxeologlar kashf etgan oltmishdan ortiq xonasida tasviriy san`at obidalari topilgan. Ularda muqaddas olovga qurbonlik keltirish, teng, bazm, janoza, ov, olishuv, to`y marosimi, navro`z, hovuzda cho`milish kabi hayot sahnalarini ko`rish mumkin.

Miniatyura va kitobat san`ati eng avvalo qog`oz bilan bog`liqligini ta`kidlab o`tish joiz. Xo`sh, bu haqda nima bilamiz?

Arab olimi Ibn Nadimning yozishicha, arablar 87 hijriy (melodiy 706) yilda dastlab Samarqandga kelganlarida qog`ozsozlik korxonalarini ko`rib, hayratda qolganlar. Chunki, ungacha arablar Qur`oni Karimni ham mol terisiga yozganlar. Shu olim Samarqand qog`ozning Xonbalig` (Xitoy) qog`ozidan nafis va latif bo`lganini yozadi. Abubakr Xorazmiy, Ibn Havqal, Istaxriy, As-Saolibiylar⁵ Samarqand qog`ozining jahonga mashhur bo`lganini eslatganlar. Turfon (Qashqar)dan topilgan Moniy asarlari Samarqand qog`oziga bitilganligini aniqlaganlar. Uning asarlaridan namunalar ham topilgan. X asrda yozilgan «Xuddud ul olam» (Olamning chegaralari) deb nomlangan geografik asarida yozilishicha, monaviylar (Moniy ta`limoti tarafdorlari)ning Samarqandda e`tiborli kuchli bo`lib, ular hijriy 372 (melodiy 982) yilgacha katta nufuzga ega bo`lganlar va ijod qilganlar. Shaharda ularning maxsus yig`ilishadigan joyi bo`lib, nag`ushok deyilgan ekan.

Tasviriy san`atning rivojlanishida tirik jonzotni tasvirlashni man qilgan islom dini ma`lum darajada to`squinlik qiladi. Ammo, bu qarshiliklar tasviriy san`atning umumiy taraqqiyotini to`sa olmadi.

Mana shutaqiqlashlar natijasida Sharqiy arab mamlakatlarida, O`rta Osiyoda dastgohli tasviriy san`atning rivojlanishi birmuncha qiyin bo`ladi, uning o`rnini esa qo`lyozma kitoblarga ishlangan bezaklar-miniatyura san`ati egallaydi.

Miniatyuraning yuzaga kelishi va rivojlanishi badiiy adabiyotning ravnaqi, kitobning qadimdan Sharqda ilmu-ma`rifat manbai sifatida yuksak qadrlanganidan dalolat beradi. Miniatyura hattotlik, sahifalarni ziynatlash, muqova bezagi bilan bir qatorda qo`lyozmaning eng asosiy murakkab badiiy elementlaridan birini tashkil

⁵ И.Абдуллаев. Аллома ва адиб. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газ. 1984 й. 2 ноябр

qilardi. Miniatyuraning asosiy ahamiyati matn mazmunini tushuntirish va asarlarni badiiy bezashdan iborat edi. Asosan, naf, nazm kabi she`riy asarlar, ilmiy traktatlar, tarixiy voqea-hodisalar aks etgan asarlarga miniatyura ishlangan. Ular orasida «Kalila va Dimna» hikoyalari, yunon tibbiyotchisi Dioskridning «Farmakologiya», Rashididdinning «Jam`iut tavorix» asarlari ham bor edi.

O`rta asrning qadimgi qo`lyozmalari faqatgina guash bo`yoqlari bilan ishlangan. Bu bo`yoqlarni tayyorlash usuli Yaqin Sharqqa VIII asrda O`rta Osiyo orqali Xitoydan o`tgan.

Shartlilik va dekorativlilik an`analari asosida qurilgan, o`ziga xos ko`rinishi bo`lgan miniatyura asarlari o`rta asr Sharq rangtasviri sifatida o`zining takrorlanmas, obrazli badiiy tiliga egadir. Bu xususiyat qo`lyozmaning dekorativ uslub, serhasham ziynatlar, shams, lavhalar, zarvara va shu kabi boshqa bezaklari kabi kitobning ziynatlari, uning tuzilishi xarakteridan kelib chiqqan.

Bizga ma`lum bo`lgan ilk arab miniatyuralari fotimiylar sulolasi davrida ishlangan bo`lib, XI asrga taalluqlidir. Ohorlangan qog`ozga ishlangan odamlar qiyofasi, hatti-harakatlari sodda va yaxlit holda tasvirlangan.

Hozirgi vaqtga kelib arab miniatyuralarini o`rganuvchi mutaxassislar qo`lyozmalarni bezashning uchta davri va xududiy badiiy markazi mavjud ekanligini e`tirof etadilar. Bular fotimiylar sulolasi davri (X-XI asrlar), Suriya (XIII asrning birinchi yarmi) va Iroq (yoki Bog`dod) XIII asr miniatyura maktablaridir. Bularning markazlari Mosum, Bog`dod va Vosit shaharlarida bo`lgan.

Arab kitob bezakchiligining ravnaq topish davrini Iroq maktabi miniatyurachiligi boshlab bergan. 1224 yilda Bog`dodda Abdollah ibn Fadl tomonidan ko`chirib olingan Dioskridning "Farmakologiya" asari qo`lyozmasi ana shu maktabga taalluqlidir. Bu qo`lyozmaning bezagini ham Abdollah ibn Fadl ishlagan deb tan olingan. Miniatyura aniq hoshiya chiziq bilan ko`rsatilgan va yorqin bo`yoqlarga bo`yalgan, katta figuralar va buyumlar aniq ko`rinib turgan matnlar orasidagi sahifaning sariq fonida aks etirilgan.

Iroq maktabining eng ajoyib asarlaridan biri Al-Qaririyning Abu Zayd as-Sarudji (o`rta asrdagi Nasriddin Afandining prototipi)ning boshidan kechirganlarini tasvirlab beruvchi “Maqom” asariga ishlangan illyustratsiyalardir. Bu asarga ishlangan miniatyuralar g`oyasining ko`pligi va xilma-xilligi bilan kishini lol qoldiradi. Bular, bozordagi masjid, qozixonalardagi ko`rinishlar, shodiyona ziyofatlar, qabul marosimlari, afsonaviy voqealar, hayvonlarning ajoyib tasvirlari bo`lib, hayotiy voqealarning haqqoniy ko`rinishlaridan iboratdir.

Ba`zi bir xil miniatyuralarda biz arab rassomlarining bitta kenglikda rang-barang kiyim-kechak va bosh kiyimlari bilan ajralib turgan odamlarni katta bir guruh sifatida tasvirlashga uringanliklarini ko`ramiz. Bunga misol qilib, Yahyo ibn Mahmudning «Bayram sayli» miniatyurasini ko`rsatishimiz mumkin.

X asrning boshlarida Eronning sharqiy viloyatlari o`rta osiyoliklar hokimiyati tepasida turgan somoniylarga yon bosadi. Buning oqibatida O`rta Osiyo va Eron xalqlarining madaniy aloqalari yo`lga qo`yiladi. X-XIII asrlarda feodalizmning rivojlangan davri-Eron san`atining rivojlanishida. Eng muhim bosqichdir. Chunki, bu davrda me`morchilikning asosiy shakllari, tasviriy san`at, badiiy hunarmandchilik ravnaq topdi. San`atlar ichida, eng avvalo, Eronning ajoyib she`riyati barq urib rivojlanadi. Shoirlar qatorida eng birinchi bo`lib, Eron va tojik adabaiyotining klassigi, mashhur «Shohnoma» poemasi muallifi Abulqosim Firdaviy turadi. XI-XII asrlar mobaynida faylasuf shoir Umar Xayyomning o`sha davr uchun yangilik bo`lgan chuqur mazmunli rubayilari dunyoga keladi.

XIII-XIV asrlar esa «Guliston» va «Bo`ston» nomli o`lmas, buyuk asarlar muallifi shayx Sa`diyning, nozik va nafis, lirik asarlar muallifi Hofizning nomi bilan chambarchas bog`liq. Ularning asarlari eng mohir hattotlar tomonidan mehr-muhabbat bilan ko`chirib kitob qilingan, ajoyib miniatyuralar bilan bezatilgan, qimmatbaho muqavalarga o`ralgan.⁶ Eron miniatyurasi san`ati hayotiy rangtasvirning eng yorqin tarixiy sahifalaridan biridir. Bu san`atning bizgacha yetib kelgan birinchi yodgorliklari XI asr boshlariga taalluqlidir, ammo miniatyura

⁶ Персидские миниатюры. XIV –XVII вв. О.Ф.Акимушкина и А.А.Иваново. М; 1968.

janrining sosoniylar davridayoq (III-VII asrlar) mavjud bo`lganligi haqida ham ma`lumotlar bor.

Eron miniatyura janrining turli davrlardagi rivojlanish jarayonida alohida maktablar tashkil topib, ular har bir davrda eng asosiy yetakchi dargohga aylangan. Masalan, XIV asr oxiriga Eron miniatyura san`atida Sheroz maktabi yuzaga keladi. Janubiy Eronning bu shahri, mashhur shoirlar Sa`diy va Hofizning vatani bo`lmish Sheroz bir necha asrlar davomida madaniyat va san`at markazi bo`lib keladi. Mahalliy hukmdorlar homiyligida adabiyot, she`riy va rangtasvir san`ati barq urib rivojlanadi. 1370 yilda «Shohnoma» asariga ishlangan illyustratsiya (Istambul, To`ppopu muzeyi) Sheroz miniatyurasining ilk namunasi.

Toshkentdagi Sharqshunoslik institutida XIV asrning ikkinchi yarmiga tegishli Amir Xusrav Dehlaviyning «Xamsa» asari qo`lyozmasi saqlanadi. Bu asardagi illyustratsiyalarda lirik g`oyalar asosiy o`rinda turadi.

XV asrning birinchi yarmida Sherozda kitobat san`ati yuksak darajada rivojlangan edi. Miniatyuraning badiiy tili boyib, yetuklikka erisha boshlangan edi. XV asrning boshlaridagi asarlar ichida 1410 va 1420 yillardagi «Fors she`riyati majmuasi» (Gulbenkyan majmuasi, Lissabon) va 1425 yildagi «Shohnoma» (Bodle kutubxonasi, Oksford) qo`lyozmalari birmuncha qiziqarlidir.

XV asr o`rtalariga kelib Sheroz maktabi o`zining rivojlanish jihatidan boshqa miniatyura maktablaridan, ayniqsa, Harot maktabidan sezilarli darajada orqada qolaboshladi. O`sha davrda fan va san`at ixlosmandlariga homiylik qila boshlagan Sulton Husayn va shu asrda yashab, ijod qilayotgan shoir Alisher Navoiy Eronning eng yaxshi san`at namoyondalarini Hirotga jalb etadilar.

1519 yili Hirotida Jomiyning «Oltin zanjir» dostoni hattot Mir Ali al-Husayn tomonidan ko`chirilgan. Ammo, asarni bezab turgan ikki miniatyura esa, keyinchalik, XVI asrning 50-60 yillarida o`sha paytlarda Ibrohim Mirza (Safaviy) saroyida ochilgan ustaxonada mashhadlik rassom tomonidan ishlangan.

XVI asrdan boshlab miniatyuralar kitob bilan bog`lanmagan holda, alohida – alohida varaqlarga, «Muraqqa`» kabi maxsus albomlarga ishlana boshladi.

Moskvadagi Sharq xalqlari san`ati Davlat muzeyining fonida XVI asrda Qozi Ahmad ibn Mir Munshi al-Husayn tomonidan yozilgan «Guliston hunar», ya`ni, hattot va rassomlar haqida risola asari saqlanadi. Qozi Ahmadning bu risolasi XVI asr Eron rangtasviri tarixining juda qiziqarli manbalaridan biri hisoblanadi.⁷ Bu asar muallifning zamondoshlari bo`lmish 32 nafar hattot va rassomlar haqida qiziqarli ma`rifat beradi.

XVII asr Eron rangtasviri, eng avvalo, XVI asr oxirida safaviylar poytaxtiga aylangan Isfahon shahri bilan bog`liqdir. Miniaturaning Isfahon maktabi mahalliy maktablarni o`zida birlashtirib, shu davrning yangi badiiy g`oyalarini ifodalab berdi. Isfahon maktabi rassomlarini insonning ichki dunyosini ifodalash qiziqтира boshladi. Manzara Elementlari bilan to`ldirilgan portret janri rivojlandi. Miniatura yorqinlik va ko`p ranglilik yo`qola boshladi. Yengil rang berilgan chizgilar muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davrda Eron miniatyurasida birinchi marta Yevropa rangtasviriga xos nur va soya, janrga xos ko`rinishlar, yevropaga kostyumda personajlar yuzaga keldi.

Isfahon maktabining asoschilari va yaratuvchilari Og`a Riza va uning mashhur shogirdi, izdoshi Rizo Abbosiydir. XVII asrning ikkinchi yarmida rassom Ali Quli Jabbor va Italiyada ta`lim olgan Muhammad Zamon yetishib chiqdi.

Toshkentdagi O`zbekiston Davlat san`at muzeyida Rizo Abbosiy mo`yqalamiga mansub deb topilgan “Yigit portreti” saqlanmoqda. Manzara fonida loqayd yigitning beso`naqay gavdasi tasvirlangan. Ayrim detallar Yevropa san`ati asarlari ruhi bilan suhorilgan bu miniatura janrining eski an`anaviy tizimini yangilash yo`llarini izlash natijasi bo`lib tuyuladi.

XVII-XIX asrlar Eron miniatyurasida jannat va do`zaxni, Muxammad (sav) payg`ambarni, shia imomlarini tasvirlash va shunga o`xshash dag`al, xunuk xarakterga ega bo`lgan “but” (xog) shaklidagi asarlar keng tarqalib ketdi.

Miniatura janri o`rta asrlar Eron san`atining shunchalik o`ziga xos va yorqin bir ko`rinish ediki, uning an`analari, ta`siri hozirgi zamon Eron rassomlarining ijodida ham sezilib turadi. Miniatura, faqat miniatyuragina o`z

⁷ Шарк миниатюра мактаблари. Н.Валиулина. Эрон миниатюра мактаби. Т; 1989 й. 16–б.

davrining eng jo`shqin g`oyalarini badiiy tasvirlashga intilish natijasida amaliy san`atning kulolchilik, to`qimachilik, gilamdo`zlik kabi ko`pgina turlariga ijobiy ta`sir qiladi.

1.2. Temur va Temuriylar davri miniatyura san`ati

O`rta Osiyo miniatyurasining badiiy qimmatining o`ziga xos xususiyatlarini to`la anglab yetmoq uning vujudga kelishidan gullab-yashnashigacha kechgan pog`onalaridan to so`nggi taraqqiyoti davrigacha bu san`at turi o`zgaruvchan tarixiy-madaniy sharoitlarga maslashib yashashda davom etgani, moddiy va ma`naviy borliqni o`zlashtirmoq va in`ikos ettirmoqning yangidan–yangi usullarini ishlab chiqishda davom etganini o`rganishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan keyingi davr O`rta Sharq, xususan Qojar va Kashmir miniatyurasi ozmi–ko`pmi o`rganildi va o`rganilmoqda. Biroq keyingi davr O`rta Osiyo miniatyurasi o`rganilmadi.

XVIII asr da O`rta Osiyoda qator ijtimoiy va tashqi siyosiy ta`sirlar tufayli siyosiy, iqtisodiy va madaniy tushkunlik yuz berdi. Ammo XVIII asr oxiriga kelib xo`jalik ahvoli izga tushdi. Buxoro amirligi, Xorazm va Qo`qon xonliklari–bu uchchala davlat hokim tabaqa mavqeining mustahkamlanishi iqtisodiy taraqqiyotga, madaniy rivojlanishga va kitob san`ati ustalari ishining jonlanishiga imkon yaratdi.

XVI asr O`rta Osiyo adabiy hayoti Eron bilan bog`liq, bo`lsa, XVII-XVIII asrlarda safaviylar Eroni shia mazxabini rasman qabul qilganlaridan keyin Movarounnahr Eron bilan munosabatlarini uzadi, Usmonli Turkiya, Kashmir, Shimoliy Hindistonga e`tiborini qaratadi⁸. Shimoliy Hindiston va Turkiyada kitob chop etila boshlangach, kitoblar O`rta Osiyoga keltirila boshlaydi.

Hind musulmon madaniyatining yirik markazlaridan Bombay, Kanpur, Lakxnau, Lohur, Kashmir⁹ O`rta Osiyoga kitob yetkazib bera boshladi. Bu kitoblar Sharq mualliflarining badiiy asarlari bo`lib, fors, arab tillaridagi diniy, falsafiy, huquq, tarix va boshhalarga doir edi.

⁸ Г. А. Дмитриев. Распространение индийских изданий в Средней Азии в конце XIX— нач. XX вв. Книга. Исследования и материалы. М., 1962, №6, стр. 240.

⁹ Е. Э. Бертельс. Литература на персидском языке в Средней Азии, «Советское Востоковедение», 1943, №4, стр. 227.

Hindiston va Kashmir kitoblarining ko`plab keltirilishi O`rta Osiyoda Hind, ayniqsa, Kashmir uslubida bajarilgan miniatyuralarning paydo bulishiga sabab bo`ldi.

Qo`lyozma asarlarga chekiladigan rasmlarning uslubiy xususiyatlari va xarakteriga 1864 yili Turkiston o`lkasining Rossiyaga qo`shib olinishidek muhim siyosiy voqea chuqur ta`sir qiladi. Siyosatdagi o`zgarish va bu bilan bog`liq o`lka iqtisodiy va madaniy hayotidagi siljishlar, Yevropa madaniyati ta`sirining kuchayishi o`lka ma`naviy sharoitida burilish yasadi.

Qo`lyozma kitob o`zining an`anaviy merosini, estetik boyliklarini ehtiyotlab keldi. Kitobni tasvirlar bilan bezashning tasviriy o`lchamlari ko`p jihatdan shartli edi. Uning mavzu doirasi, tasvir tematikasi va uslubi cheklab qo`yilgan edi. Kitobni tasvirlar bilan bezash san`atining gullab-yashnagan davrida rasmlarning syujetlari feodalizm mafkurasi uchun muayyan ahamiyatga ega bo`lgan hukmdorni ulug`lovchi, uning jangdagi zafarlari, jang sahnalari, davlatni oqilona idora qilish, falsafiy suhbatlar, olimlar bahsi, hashamatli saroy tantanalari va ko`ngil ochish kechalari mavzularidan iborat edi¹⁰.

Musavvir shaxsiga keyingi davrda ham aytarli ahamiyat berilmasdi. Ilgarigidek musavvir imzosi deyarli qo`yilmasdi. Ammo badiiy bezakli qo`lyozmalar bir necha unut bo`lgan o`rta osiyolik musavvirlar nomini bizgacha asrab keldi. Ularning asarlari badiiy ijod uslublari haqida tasavvur beradi. Bular mashhur buxorolik musavvir Ahmad Donish, Mir Muhammad Siddiq, (Xashmat)-amir Muzaffarning «gunohkor» o`g`li (XIX asr ikkinchi yarmi), qo`qonlik Muhammad Amin Kosoniy, Muhammad Shokirboy, Xoja Nosir...

Keyingi davr rasmlarida an`anaviy klassik mavzularga sodiqlik xislatini ko`ramiz. O`rta asr tafakkuri va tasvir yo`llariga ergashishdan tashqari, ularda chetga chiqishlar, qurama shakllar paydo bo`ldi, ularda yangilik eskilik bilan ajib bir tarzda qorishtirildi. O`rta Osiyoning turli mavzulari chekilgan tasvirlarda yangi belgilarni ko`rish mumkin. Bu umuman, miniatyuralarda yangicha talqin

¹⁰ Л. Н. Додхудоева. Отражение литературных сюжетов в Средневековой миниатюрной живописи. Автореферат канд. дисс. Л., 1979, стр. 13.
1 Г. А. Пугаченкова, Л. И. Ремпель. История искусств Узбекистана. М., 1965, стр. 317

jarayonidan darak berardi. Qator sabablar miniatyuraning erkin taraqqiyotiga monelik qildi. Unda jamiyatdagi dunyoqarashning o'zgaruvi kuzatilmasdan, eski mavzu qobiqlarida belgilar rivoji va shu bilan bir vaqtda buzilishini kuzatish mumkin. An'anaviy mavzularning cheklangani sharoitida syujet tanlashda bo'lgan sezilarli siljishni ko'rish mumkin. Xususan, ulardan ba'zilar shart hisoblansa ham kamdan-kam ishlatiladigan bo'ldi. Boshqalariga esa e'tibor yanada oshirildi. Ilgari uchramagan mavzular paydo bo'ladi. Syujet rivojida ko'pchiligi ramziy ma'noda va mos kelmaydigan naqshdan iborat bo'lsa ham avj pallalarni tasvirlovchi miniatyuralardan tashqari odatdagi «avliyo-anbiyo»lar mavzuidagi syujetlar ajratib ko'rsatiladi. (Me'roj, najot izlovchilarning Hizr bilan suhbat.) Zarvaraq o'rta asr diniy kitoblarida kam uchraydigan muallif yoki bosh qahramon «portreti», qolgan rasmlarda ham qahramonlarning «portret»lari, ichki kechinmalarini tasvirlovchi sahnalar, suhbat mavzui beriladigan bo'ldi.

Urta Osiyo miniatyurasi ustalari Kashmir uslubiga yangilik bilan asl uslubni o'zida mujassam etgani uchun e'tibor berdilar. Kashmir miniatyuralari badiiy hodisa sifatida turli davr, Hind, Eron va O'rta Osiyo miniatyurasi muayyan yutuqlarini o'zida birlashtiradi va umumlashtiradi¹¹. Kashmir musavvirlari o'zlarining rango-ranglikka, sahnalarning kam odamli bo'lishiga, sodda fonga, syujetni tor doirada ifodalashga qiziqishlari sharoitida mazkur uslublarni qabul qildilar, lekin ularda O'rta Osiyo miniatyuralariga xos kompozitsiyaning naqshiy ifodaligini oshiruvchi detallarga va naqshlarga seroblik yetishmaydi. Unchalik nafis bo'lmasa ham undagi erkin va harakatchan usul figuralarga jonlilik bagishlaydi.

Soddalik va folklor rasmlar uning tabiiy rivoji va ichki buzilish jarayoni sezilgan klassik miniatyuraning qayta qurilishi natijasi edi. Bu yo'l tasvirni soddalashtirish va sxematik qilishga urinish, uning ifodaliligini susaytirish, ifoda vositalarini soddalashtirishga urinishdan iborat bo'ldi. Rasmlarda tasvirdan ko'ra belgilar funktsiyasi ustunlikni ola boshlaydi. Fonning ahamiyati o'z eski qimmatini yo'qotadi, uning detallari sxematik qilinadi, miqdori kamaytiriladi, fragmentlari

¹¹ Н. А да м о в а , Т. В. Г р е к . М и н и а т ю р ы К а ш м и р с к и х р у к о п и с е й . , Л . , «Искусство», 1976, стр. 25

tushib qola boshlaydi. Fragmentallik printsipga aylana boradi. Fonga munosabat yangilik izlash va Yevropacha tasvir usullariga qiziqish bilangina o`zini oqlaydi. Makon tuzilishini qayta qurish (chuqur makon ifodasi, predmetlarni yorug`lik va soya tomonlarini hisobga olib tasvirlash) bir me`yorda bormadi, qarama – qarshiliklar bilan bo`ldi. Musavvir usullarni eskichasi bilan qo`shib, ba`zi o`rinlarda eski usullardan butunlay voz kechib, yangi, odat bo`lmagan usullardan foydalana boshlaydi. Bosh va ikkinchi darajali personajlarni ajratib ko`rsatishda o`zgarishlar yuz beradi. Qahramonlarni tasvirlashdagi odob va qoidalarga ham rioya qilinavermaydi. Shu bilan uslub buziladi.

Hukmdor, podsho amaldorlari tasviri endi rasm markazida joylashavermaydi, ular asta-sekin tasvir ichkarisiga, yuqorisi yoki chekkasiga olinadi, o`rnini voqeaga yoki unchalik yuqori mansab egasi bo`lmagan personajlarga bo`shatib beradi. Lekin barii-bir musavvirning e`tibori ko`proq o`shanga qaratiladi (Masalan, «Rizoqulixonning to`yi» sahnasidagi raqqosalar - «Nomayi Olamoroyi Nodiriy» asaridan.)

Hukmdorlar tasviri ba`zan pastroqqa olinadi. Endi ular unchalik tantanavor va salobatli emas, rasm turiga bo`ysundiriladi. Hukmdor bo`yi barobar (taxt bo`lishi shart emas) turgan holda va bir necha mashshota, pardozi-andoz qilayotgan qizi bilan suhbat qilmoqda. (5017 raqamli qo`lyozma.) Asosiy personaj (masalan, Majnun) rasm markazida emas, pastida tasvirlanishi mumkin. Buning ustiga uning oyoqlari rasmga tushmay qolishi ham mumkin. Bunga ilgari yul qo`yilmasdi.

Ba`zi miniatyuralarda butunlay bo`lmasa ham klassik merosga nisbatan zid bo`lgan tasvirga-dastgohli rang tasvirga xos elementlar paydo bo`la boshladi. Tekis yorug`lik tushirilgan peyzaj tabiat ko`rinishi oldida nursizdek, uning ranglari ba`zan quvnoqlik, ba`zida hayajonli-g`amgin va jiddiy.

Tasvirlanayotgan buyumga bo`lgan munosabatning o`zgarishi rasm usulida ham sezildi. Obrazli ifodalash saqlangani holda rasm soddaroq, chiziqlar shakllarga nisbatan sezilmay qoldi. Aniq chekilgan kishi figuralari taxminiy va qo`polroq chiziqli rasmlar bilan, bular esa o`z navbatida damsho`ylar bilan almashinadi. Ranglar ham tekis berilmaydi, quyug`u suyuq rang dog`lari va

belgilari tasvir mukammalligini talab qilmaydigan, ammo musavvirning uzg`oyasini ifodalash bilan bog`liq rasmlar estetikasini yangicha tushunishning izlari edi. XVI asrdan boshlangan Eron miniatyurasining uslubiy yullaridan voz kechish harakati kuchayadi. Eron miniatyurasi XVIII-XIX asrlarda Hind miniatyurasi kabi Yevropaning chuqur perspektivali keng ko`lamlilik va keng peyzaj foniga ega usulini to`la qullay boshlaydi.

Shunday qilib, keyingi davr O`rta Osiyo miniatyurasining tasviriy vositalari va usullarida sezilarli o`zgarishni kuzatamiz. Klassik davrda tug`ilgan obrazli xarakteristika vositalari o`rniga olg`a siljish natijasida illyustratsiyaning yangi tasvir uslubiga o`tishga yo`l ochiladi.

1.3. Kamoliddin Behzod ijodi

Behzod qadimgi Xurosonning katta shaharlaridan biri, temuriylar poytaxti bo`lmish Hirot, 1455 yilda tug`iladi. Tarixiy asarlarda yozilishicha Behzod otadan juda erta yetim qolib, taniqli Hirot xattoti va rassomi Mirak Naqqosh Xurosoniy qo`lida tarbiya oladi. Mirak Naqqosh Xuroson hukmdori Sulton Dusayn (1469-1506) saroyida shoh kutubxonasining boshqaruvchisi, kitobdor vazifasida ishlaydi.

Mirak Naqqosh Behzodning ustozlaridan biri edi. Uning miniatyura san`ati bo`yicha ustozlaridan yana biri, buxorolik ustod Jahongirning shogirdi mashhur rassom Pir Sayid Tabriziy bo`lgan. Uning ustozlari o`z zamonasining mashhur rassomlari edi. Mirak Naqqosh manzara asarlar ustasi va ajoyib xattot bo`lib tanilgan. Pir Sayid Tabriziy esa buyuk musavvir edi. Behzodning asarlaridagi o`ziga xos xususiyatlarda ustozlarning ta`siri kattadir. XVI asrning boshlarigacha X,irot shahri rivojlangan madaniyat markaziga aylangan bo`lib, O`rta Sharqda unga teng keladigan shahar yo`q edi. Bunday muvaffaqiyatlarni qo`lga kiritishda Sulton Husayn Boyqaroning xizmati juda katta edi. Bobur o`z xotiralarida zavqlanib shunday yozadi: «Hirnikim rub`i maskunda andoQ shahr yo`qtur va Sulton Husayn Mirzoning zamonida mirzoning tasarrufidin va takallufidin Hirining zeb va ziynati birga o`n, balki yigirma taraqqiy qilib edi»¹². Haqiqatan ham, Hirot shahri me`morchiligi masjidlarining salobatlilik bilan madrasalar, mehmonxonalar, shifoxonalar, hammomlar, tim (yopiq; bozor) larining, xullas, barcha qurilish binolarining aniq qurilmalari va ularni bezab turgan naqshinkor koshinlarining rang–barangligi bilan kishilarni hayratga solgan

Xurosonning hamma tomonidan Hirotga qarab mashhur faylasuflar, olimlar, rassomlar va shoirlar oqib kelardi. Bu yerda mushoiralar, majlislar uyushtirilar shuningdek faylasuflar, askiyachilar va shoirlarning musobaqasi o`tkazilardi. Miniatyura va xattotlik asarlarining eng yaxshi namunalari muhokama qilinardi.

Sulton Husayniing o`zi ham shoir bo`lib, nafis san`atning nozik bilimdoni sifatida o`z davrining mohir ijodkorlariga homiylik qilar edi. Jomiy va Navoiy,

¹² Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома, 252 – бет

Mirxond va Xondamir, chiroyli husnixat mualliflari xattot Sulton Ali Mashhadiy, Kamoliddin Behzod o`sha paytlarda Hirotning gultoji edilar.

Alisher Navoiy yozgan edi: «Men Boyqaro saroyidagidek bastakor va shoirlar, musavvirlar, xattotlarning buyuk musobaqasi o`tayotgan biron-bir davrni bilmayman». Sulton Husaynning vaziri va do`sti bo`lmish buyuk o`zbek shoiri Alisher Navoiy Hirotning madaniy ravnaq topishida katta mehnat sarf qiladi. Buyuk Behzodning shakllanishida ham Navoiy katta ta`sir ko`rsatdi. «Buyuk ustod o`zining haqiqiy mashhur musavvirligiga amir Nizomiddin Alisherning marhamati va g`amxurligi tufayligi erishdi», -deydi tarixchi Xondamir.

XV asrning 90-yillaridayoq Sulton Husayn Behzodni o`z kutubxonasining boshlig`i qilib tayinlagan va unga tez-tez o`zi uchun Sharqning buyuk yozuvchi va shoirlarining asarlariga miniatyura chizishni buyurar edi. Aytishlaricha, Sulton Husayn hatto Behzod uchun o`z bog`ida ustaxona (ijodxonona) qurdirib, uning ishidan zavqlanish uchun tez-tez u yerga kelib turar, bu bilan dunyoning tashvishlarini birmuncha unutganday bo`lard.

Sulton Husayn vafotidan so`ng 1507 yilda Shayboniyxon Hirotni bosib oladi. Behzod Hirotda qolib, temuriylar ijodxonasida o`z ishini davom ettiradi. Shayboniyxon ham bilimdon hukmdor bo`lib, mashhur rassomga alohida e`tibor beradi va unga o`z portretini chizishni buyuradi. Shayboniyxon halokatidan so`ng, 1510 yilda Hirotni shoh Ismoil bosib olgach, Behzod boshqa yangi bir hukmdor xizmatiga o`tishga majbur bo`ladi va safaviylar poytaxti-Tabrizga ko`chib o`tadi. Safaviylar sulolasining asoschisi shoh Ismoil Behzod ijodini yuqori baholaydi. Turk tarixchisi Alining yozishicha, turklarga qarshi yurish oldidan shoh Ismoil shunday degan ekan, «Agar mag`lub bo`lib, poytaxtim dushman tomonidan bosib olingan taqdirda ham, men dushmanlarim qo`liga saroydagi, xattot Mahmud Nishopuriy va mohir ustod Behzodning tushishini aslo istamas edim». 1514 yilda Chaldiran yonidagi jangda muvaffaqiyatsizlikka uchragan shoh Ismoil qaytib kelishi bilan eng birinchi bo`lib ularning ahvollarini so`rattirgan. O`zining rassomga bo`lgan alohida hurmatini aniq bildirish maqsadida shoh Ismoil 1522

yilda maxsus buyruq bilan Behzodni shoh kutubxonasining boshlig`i-kitobdor qilib tayinlaydi.

Shoh Ismoilning o`rniga o`tirgan shoh Tahmosib (1524-1576) ba`zi bir manbalarda yozilishiga qaraganda, Behzodni uncha yoqtirmagan. Keksayib saksonlarga borib qolgan rassom vataniga qaytib kelishga majbur bo`ldi. 1535-36-yillarda rassom Hirotida vafot etadi.

Behzodning Tabrizda yashagan paytlarida noma`lum rassom tomonidan ishlangan portreti saqlanib qolgan. Portretda u bor bo`yicha tasvirlangan bo`lib, qulida miniatyuralar solingan juzvdon ham bor. Uning qomati birmuncha bukchaygan. Sal oldinga intilgan gavdasi yengil chizilgan, ayniqsa, xarakterini ajratib ko`rsatadigan davomli chiziqlar diqqatga sazovordir.

Behzod yaratgan asarlarning aniq bir hisobi yo`q. O`rta asrlarda xattotning mehnati miniatyurachi rassom mehnatiga qaraganda yuqori bolangan. Shuning uchun ham ko`pincha miniatyuralarga imzo qo`yilmagan, faqat ba`zi paytlardagina miniatyuraning biror-bir burchagida yoki sahifa chetida, yo bo`lmasa, arxitektura dekoratsiyasi orasida rassomning imzosi ko`zga tashlanib qolardi. Behzod bizga bir nechta imzoli asarlar va imzo chekilmagan ko`pgina noma`lum asarlar qoldirgan.

Bularning ko`pi, asosan, alohida sahifalarda Sharq klassiklarining asarlari illyustratsiya va miniatyuralari bo`lib, ular «Muraqqa`» deb nomlangan maxsus albomlarga kiritilgan. Portretlar Behzod ijodida alohida o`rin egallaydi. U portret janrini ma`lum darajada rivojlantiradi va portret san`atining noyob, asl namunalarini yaratadi.

Behzod o`z ishlarida Sheroz, Tabriz va Hirot miniatyura maktablarining muvaffaqiyatlarini ajoyib ravishda uyg`unlashtiradi. Rassom miniatyura san`ati sohasida yangi bir yo`nalish yaratadi. U juda usta tarroh bo`lib, ranglarni ham jonlantirar, shu bilan birga, miniatyura janriga yangi g`oyalar hayotiylik va gumanizm ruhi barq urib turgan yangi syujetlar olib kirardi.

Rassom o`zining yoshlik yillarida ishlagan ilk asarlaridayoq (XV asrning 80-yillarida) masalan, 1467 yilda ko`chirilgan Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»

asariga, 1478 yildagi Sa`diyning «Bo`ston» asariga, (CHester Bitti kolleksiyasidan) va Nizomiyning «Xamsa» asariga ishlagan miniatyuralarida (1442 yil. Britaniya muzeyi) va boshqalarda hayotni jiddiy kuzatuvchi mohir san`atkor ekanligini ko`rsatadi. Yana bir narsani ta`kidlab o`tish kerakki, Behzod illyustratsiya qilinadigan qo`lyozmadan shunaqa syujetlarni tanlab oldi-ki, bu syujetlar uningcha, hayotning turli lavhalarini, mavjudotning doimo harakatda ekanligini ko`rsatishi lozim. Masalan, qal`alarning qamal qilinishi va janglar, masjidlarning qurilishi, bayram yig`ilishlari va ziyofat kabilar. Jang shiddatining real tasviri, mehnat maromi va turmushni haqqoniy aks ettirgan ba`zi bir lavhalari uning kompozitsiyalarini o`sha uzoq o`tmishga aylangan davrning tengi yuq noyob hujjatlariga aylantiradi.

Shungacha va shundan keyingi davrlarda yaratilgan kompozitsiyalarda Behzod uncha katta bo`lmagan sahifalarda juda keskin harakat va katta kenglikni o`zida mujassamlashtirgan miniatyuralarni yaratish uchun alohida bir usulni qo`llaydi, u figuralarni miniatyura ramkalari bilan kesib qo`yadi (yoki ba`zan harakatni qo`lyozma jadvallaridan chetga chiqarib yuboradi) va ushbu usul bilan tomoshabinning xayolida harakat davom etayotganligi tasavvurini tug`diradi. Masalan, Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sidagi «Xiva qal`asining qamal qilinishi» nomli asari aniq detallar, kurashayotgan va qamal qilingan mudofaachilarning kompozitsion to`g`ri joylashganligi tufayli tasvir haqqoniy chiqqan. Qal`a hali egallanmagan, ammo g`alabaga erishish muqarrar. Dushman otliqlari qal`a darvozasiga yopirilishgan, yana bir oz harakat qilinsa darvoza qo`lga olinadi. Ammo qamal qilinganlar taslim bo`lishmayapti. Ular baland devor kungiralari, minoralaridan turib otishyapti, dushman boshiga toshlar yog`ilayapti. Behzod bu asarida dushmanga yon bosishni istamagan inson irodasi naqadar qudratli kuchga ega ekanini tan oladi.

Masjid qurilishini tasvirlayotgan kartinada esa («Xamsa»Nizomiy, Britaniya muzeyi, «Zafarnoma») Behzod qurilish ishlarining borishini keng ko`lamda ko`rsatib bergan. Bu miniatyuralarga qarab turib, tomoshabin go`yo ish boshqaruvchilarning qichqiriqlarini, hunarmandlarning g`ala-g`ovurini, qurilish

materiallarini tashib keltirayotgan aravalarning g`ijirlashini eshitayotgandek bo`ladi. Ish juda jadal bormoqda. Saroy qasri qurilib bezatilgan, ammo hali qilinmagan ishlar juda ko`p. Quruvchilar masjid peshtoqini qurishmoqda, ustalar binoni bezatish uchun og`ir marmar koshinlarni tashishyapti, tosh yo`nuvchilar esa marmar taxtalarga naqshlar yyishmoqda. Boshqa ishchilar esa g`isht teruvchilarga qorishma tayyorlashayotgan bo`lib, duradgorlar taxta yo`nishyapti, nazoratchi esa noshud ishchining boshida xipchin silkityapti. Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida Farhod jasoratini qanchalik kuylagan bo`lsa, Behzod ham o`z miniatyuralarida Hirot shahrini obod qilgan nomsiz ustalar va hunarmandlarni muhabbat bilan tasvirlaydi.

Sa`diyning «Bo`ston» asaridagi (Qohira kutubxonasi) mashhur «Doro va cho`pon» miniatyurasi Navoiyning insonparvarlik g`oyalari ta`siri ostida yaratilgan. Bu qo`lyozmadagi rasmlardan beshtasi Behzodniki bo`lib, uning to`rttasiga muallifning o`zi imzo chekkan. Bu miniatyura ahmoniylar podshosi Doro haqidagi naql asosida yaratilgan. Bir kuni Doro ov qilib yurib, o`z mulozimlaridan orqada qolib ketadi va notanish, shubhali bo`lib ko`ringan cho`ponlar orasiga tushib qoladi. Ular siymosida o`z dushmanlarini ko`rib, uning yoniga yaqinlashgan cho`ponni o`q-yoy bilan otib o`ldirmoqchi bo`ladi. Ammo cho`pon podshohni o`z xizmatkorlarini tanimaganligidan izza qilib, men o`z uyurimdagi har bir otni darhol taniyman, deb uni uyaltiradi.

Bu miniatyurada qoyali tog`lar, ba`zi joylari butalar bilan qoplangan yamyashil o`tloq, cho`ponlar va otlar yorqin bo`yoqlar ostida bir-biri bilan uyg`unlashib ketgan. Bu asarida ham Behzod baytal onasini emayotgan toychoq va qimiz quyayotgan cho`pon bola kabi hakdoniy va hayotiy lavhalarni tasvirlaydi. Ayniqsa, keksa cho`pon qomati juda ta`sirchan chiqqan, u kompozitsiyaning markazida joylashgan bo`lib, holati va ko`p harakatlari o`z mulozimlarini yaxshi tanimaydigan yosh podshoga qaratilgan behad kesatiq va kinoyani ifodalaydi.

XVI asrda yashab ijod etgan tarixchi Zayniddin Vosifiy o`zining «Ba`doe ul-vaqoe`» asarida Navoiy bilan Behzod o`rtasidagi bir qiziq voqeani keltiradi: «Alqissa kunma-kun, soatma-soat ustoz (Behzod)ning hunar va martabasi o`sa

bordi. Chizgan naqshi tufayli u g`oyiblik pardasidan chiqib shuhrat va zakovati surati (yakqol) namoyon bo`la bordi. (SHunday bir hodisa) Mashhurki, ustoz Behzod (suvrat chizilgan) sahifani buyuk Amir Alisherning firdavsmonand, osmon ziynatli majlisiga keltirdi. Suvratda tasvirlanishicha, orasta bog`cha u turli-tuman daraxtlar bilan qoplangan va daraxt shoxlarida xushsurat turli-tuman qushlar, har tarafda ariqchalar shildirab oqib yotibdi. Ochilgan zangori gul tuplari va uning orasida Mir (Alisher)ning yoqimli xush surati. U asoga tayangan holda turibdi. Yonida sochqi (odatini ijro etmoq uchun), zar to`la taboqlarni qo`ygan. Hazrati Mir ul suvratni mushohada va mulohaza qildi: ul nafis bog`lar ichra latif va shodlik gullari, xayoliy hovuzlar atrofi go`zal va huzur bag`ishlovchi daraxtlar bilan bezalgan. Bog`dagi (shod) bulbuldek (Alisher) zavq va shavqqa to`la ko`nglidan «ahsan–ul ahsan» («juda soz») sadosini chiqardi.

Bayt:

Naqqosh budi, xona munaqqash kardi,

Ey vaqti tu xush, ki vaqti mo xush kardi.

Mazmuni: «Ey naqqosh sen kelib xonamizni bezatding. Vayting xush bulsin. Zeroki, bizni bag`oyat xushnud etding».

Shundan sung Alisher Behzodga egar–jubduqli ot va munosib tun, majlis ahlining har biriga (esa) hashamatli libos in`om qiladi.»¹³

XV asrning 90-yillaridan keyin yaratilgan asarlarida Behzod ko`proq manzara janriga e`tibor beradi. Manzara Behzod uchun faqat muhitni nafis va nozik tasvirlashgina bo`lib qolmasdan, eng avvalo, bir oz gamgin, chuqur lirik kayfiyatni bera bilishdan iborat bo`ldi.

Behzod mo`yqalamiga mansub ikki portret bizgacha yetib kelgan. Bular Sulton Husayn va Shayboniyxon portretlaridir.

Behzodning badiiy izlanishlari va muvaffaqiyatlari rassomlikda katta bir inqilob rolini o`tagan. Buyuk rassomning ko`pgina shogirdlari ustoz asarlaridan uning usullarini o`rganishardi. Ularning ba`zilari ustoz asarlarining ifoda shakliga

¹³ О.У с м о н о в Камолиддин Беҳзод ва унинг наққошлик мактаби. Тошкент, «Фан» нашриёти, 1977, 44-46-бетлар.

e`tibor berishar, insonning ichki dunyosiga, his-tuyg`ulariga chuqur kirib borishmasdi. Insonning ichki dunyosiga kirib borish, uning tabiatini nozik his qila bilish, har qanday shart – sharoitlarga ham qaramasdan unga ishonish buyuk rassom ijodining insonparvarlik asosini tashkil qiladi. Xuddi mana shu xususiyatlargina uni zamondoshlari orasida bo`lgan, bir qancha mashhur rassomlardan ham ilgarilab ketishiga sabab bo`ldi va uning nomi-yu, asarlarini mangu qilib qoldirdi.

2-bob. O`zbekiston miniatyura san`ati

2.1. XVI–XVII asrlarda miniatyura maktabi.

O`zbekiston miniatyura san`ati oltin zanjirning eng go`zal va ajralmas xalqasi ekanligini bilamiz. Biroq, u o`zi yurtimizda qachon paydo bo`lgan, qanday rivojlangan? –degan savol tug`ilishi tabiiy. Uning tarixi uzoq o`tmishdan boshlangan bo`lsa ham, u Sharqda XIV–XVII asrlarda kamol topdi. Bu davrlarda O`rta Osiyo, Hindiston, Eron va Arab mamlakatlarida –Buxoro, maktabi, Mo`g`il (Boburiylar) miniatyura maktabi, Sheroz maktabi, Isfaxon maktabi, Yazd maktabi, Bog`dod maktabi kabi yirik san`at markazlari tashkil topgan. Bu maktablarning o`zaro aloqalari, qadimgi O`zbekistonning tarixiy xududini o`rganib chiqqan holda biz ham boshqa tadqiqot ishlari qatorida Shraq miniatyura maktablari, xususan O`zbekiston miniatyura san`atini o`rganib chiqamiz.

Yurtimiz boshidan ko`p qiyinchilik, og`ir kunlarni o`tkazdi. Avvalo, Chor Rossiyasi O`zbekistonni bosib olishi, undan so`ng Sobiq Ittifoq davlatini barpo bo`lishi juda ko`plab ilmiy, madaniy, milliy boyliklarimiz yo`q qilindi. Borlarini esa tashib ketildi. Natijada tarixning zanjiri uzilib qoldi. Buni tiklash maqsadida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab G.A.Pugachenkova Movarounaxrda miniatyura maktablarining tashkil topishini aniqlash maqsadida tadqiqot ishlarini olib bordi.

Movarounaxr maktabi (ya`ni, «Buxoro maktabi», «Samarqand maktabi», – deb yuritish joiz ham bo`lib kelgan) XVI-XVII asrlarda taraqqiyotning yangi bosqichiga ko`tarildi. Bu borada turli siyosiy va ijtimoiy voqealar ta`siri natijasida «Hirotdan miniatyura maktabi»ning tanazzuli va musavvirlarning Hirotdan Buxoroga kelishlari muhim rol o`ynaydi. Biroq, bu bilan «O`zbekistonda miniatyura XVI asrdan paydo bo`libdi», –degan yangilish fikrga borish noto`g`ri ekanligini unutmaslik kerak. G.A.Pugachenkova XIII asr, juda bo`lmaganda XIV asrda Movarounaxrda miniatyura maktabi tashkil topgan degan fikrni birinchilardan bo`lib ilgari suraydi.

Rus san`atshunos olimi A.A.Ivanov ham G.A.Pugachenkova fikriga qo`shilgan tarzda o`z fikr mulohazalarini bildiradi. Uning fikriga ko`ra

Movarounaxr miniatyura tarixini o`rganishni XX asr boshlarida frantsuz tadqiqotchisi E.Bloshe boshlab bergan, undan so`ng F.R.Martin va K.YUorlar davom ettirganlar.

XX asr o`rtalarida va ikkinchi yarmida V.G.Dolinskaya, A.A.Semenov, O.I.Golerkina, M.M.Ashrafi, O.K.Akimushkin, N.V.Dyakonovalar hamda XX asr oxirlariga kelib O.Usmonov, N.Norqulov, I.Nizomiddinov, Z.Rahimova, N.Valiulina, A.Madraimov, R.Taxtash, N.Zichanshina kabi ko`plab olimlar shug`ullanganlar.

Rus san`atshunosi A.A.Ivanov Ustod Gung, jahongir Buxoriy, Pir Sayyid Ahmad Tabriziy, Xo`ja Abdulhay, Pir Ahmad Bog`i Shamoliy, Shahobiddin Abdulla, Zaxiriddin Azhar, Bobo Naqqosh, Xo`ja Ahmad Ubaydullo va Nizomiddin Ahmad binni Ali Arzumlar umuman O`rta Osiyoga hech qanday aloqasi yo`q shaxslar bo`lib chiqadilar, deb umuman noto`g`ri fikrni ilgari suradi. Tanqidchi hatto Ustod Gung, jahongir Buxoriy, Par Sayyid Ahmad Tabriziylarni tarixiy shaxslar emas, balki ular afsonaviy shaxslar deyishgacha borib yetadi.

A.A.Ivanov, N.V.Dyakonova tarafidan ilgari surilgan. va G.A.Pugachenkova, V.G.Dolinskaya qo`llab-quvvatlagan XVI asrda Samarqandda maxsus miniatyura maktabi tashkil etilgan edi, -degan fikrni ham asossiz deb hisoblaydi. Uning xulosa qilishicha XIV–XV asrlarda Movarounaxr miniatyura maktabi bo`lmagan. Bundan biz shunday xulosa qilishimiz mumkin, bu noto`g`ri berilgan baho, bu xalqimizni, san`atimizni haqorat qilish demakdir. Bu san`atshunosning fikrini yuqorida keltirilgan fikrimizning, ya`ni «CHor Rossiyasi va sobiq Ittifoq davrida millatimiz, milliy san`atimiz, qadriyatlarimiz yo`q qilish maqsadi ilgari surilgan» -fikir naqadar to`g`ri ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Hurmatli, san`atshunos olimi G.A.Pugachenkova, A.A.Ivanov fikriga javoban 1979 yili «XV asr O`rta Osiyo miniatyura tasviriy san`ati maktabi haqidagi munozaraga doir»¹⁴ nomli raddiya –maqolasini chop qiladi. Bunda

¹⁴ Г.А.Пугаченкова «Искусство», 1979 М; № 2 «К дискуссии среднеазиатской школы миниатюрной живописи XV века»

G.A.Pugachenkova qo`shimcha manbalar asosida Abduraxmon as-So`fining astronomik risolasi, «Tog`dagi ov» va «Ulug`bek o`z oilasi bilan» nomli qo`lyozma va miniatyuralarni qayta tavsif etadi, uni xorijiy olimlardan D.N.Uilber, I.SHchukin, E.Grube, R.Meredith-Ouens va hatto B.Robinsonlar «Ulug`bek portreti» Samarqandda chizilganligini tan olganliklarini alohida ta`kidlaydi. Bundan ko`rinib turibdiki A.A.Ivanov tomonidan noto`g`ri fikr ilgari surilgan.

San`atshunos olimlar-G.A.Pugachenkova va O.Galerkinaning «O`rta Osiyo miniatyuralari» (Miniatyury Sredney Azii. M; 1979) kitobi bu xoldagi noto`g`ri, g`ayriilmiy fikr va mulohazalarni puchga chiqaradi.

Samarqand XIV-XV asrlarda ilm-fan va san`at, madaniyat taraqqiyoti Bilan dunyoga mashhur bo`lgan shahar edi. Hirot miniatyura maktabi ana shu kata san`at va madaniyat o`chog`ining ajralmas bir qismi bo`lgan.

Aniq tarixiy ma`lumotlarga ko`ra, Behzod miniatyura san`atini Pir Said Ahmad Tabriziydan o`rgangan. Tabriziy esa «Umdat ul-musavvirin» (Musavvirilar peshvozi) nomi bilan mashhur bo`lgan buxorolik ustod jahongirning shogirdi bo`lgan.

Ustod Jahongir esa temuriylar davri tasviriy san`atining asoschisi bo`lmish ustod Gung (Soqov) dan tahsil ko`rgan.

Olimlar Behzodni Sharqda portret janrining asoschisi deb ulug`laydilar. Xo`sh, Hirot maktabiga qadar O`rta Osiyoda portret janriga ahamiyat berilganmidi? G.A.Pugachenkova va O.Galerkina kitobida ko`rilayotgan masalaga daxldor ikkita tasvir keltirilgan. Ulardan biri –«Samarqand devoridagi jang» (Istambuldagi Yulduz kutubxonasida saqlanmoqda), ikkinchisi–«Ulug`bek oila a`zolari va saroy ahllari bilan lochin ovida» (Vashingtondagi Frir galereyasida saqlanmoqda) nomli miniatyuralardir. Birinchi tasvirda Samarqand devoridagi kamon otuvchilar orasida Temurning nevarasi Halil Sultonning surati ham bor. Uning tasviri markaziy o`rinda aniq qilib berilgan va hatto suratning yoniga uning ismi ham qayd etib qo`yilgan. Halil Sulton Temur vafotidan so`ng Samarqand hukmdori bo`lgan edi (1405-1409).

Ikkinchi tasvirda esa Ulug`bek dala shiyponda chordana qurib o`tiribdi.

Uning yuz tuzilishi aniq ifoda etilgan. Qisq ko'zli, mo'g'ulbashara, o'rta osiyoliklarga xos soqol, boshida esa oq tivit qalpoq. Ayollar esa «mo'g'ulcha» kiyinganlar. Saroy ahlining kiyimlari ham aniq tasvirlangan. Asarda Samarqand miniatyura maktabiga xos portret aniqligi hamda tabiat manzarasi yorqin ifodalangan. Miniatyura 1441-42 yillarda noma'lum, lekin Ulug'bekning ov mashg'ulotida ishtirok etgan musavvir tomonidan chizilgan bo'lsa kerak.

Miniatyuralarning yaratilish davri, ularning O'rta Osiyo tarixiga oidligi va bu o'lka tabiati fonida tasvir etilganligini portret janri Hirot maktabiga qadar amalga oshirilganligining dalili deyishimiz mumkin.

XV-XVII asrlarda O'rta Osiyo tasviriy san'ati maktablarida portret janri va tarixiy voqealar bayoni miniatyuralarning izchil hamda uzviy mavzuiga aylanib borganligi kuzatiladi. G.A.Pugachenkova va O.Galerkinaning asarlarida bu fikrni tasdiqlovchi yetarli ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, Ma'sud ibn Usmoniy Qo'histoiyning «Abdulxayrixon tarixi» asari sahifalarida chizilgan «CHingizxonning Sirdaryo sohilida o'z o'g'illarini qabul etishi», «G'azanxon Urjonda», «Abdullaxon portreti», Xotifiyning «Temurnoma» asariga ishlangan «Temurning Hindistonga yurishi», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» kitobi mazmuni asosida chizilgan «Temur Samarqand atrofida bazmi jamshidda» miniatyuralari va lavhalari yuqoridagi fikrning yaqqol dalilidir.

Ibtidosi O'rta Osiyoda boshlangan Hirot miniatyura maktabida rivojlantirilgan portret janri Hindistonda boburiylar hukmronlik qilgan yillarda kamolot darajasiga yetkazilgan.

Endi A.A.Ivanov ko'targan bir masala yuzasidan bahslashib olsak. Sovet va xorijiy san'atshunoslar asarlarida Muhammad Murod Samarqandiy va Muhammad Nodir Samarqandiylar aslida Movarounnahr (O'rta Osiyo)lik musavvirlar bo'lib, XVII asrda Hindistonga borganlar va Hindiston tasviriy san'atini rivojlantirishda muhim rol o'ynaganlar, deb yozilgan. A.A.Ivanov esa, Muhammad Murod Hindistonga bormagan va Muhammad Nodir balki O'rta Osiyoda tavallud topmagandir, «Samarqandiy» so'zi ota –bobolari shu shahardanligini bildiruvchi «nisba» bo'lsa kerak, deb taxmin qiladi. Va shu xildagi taxmin asosida u, XVI

asrda O`rta Osiyo bilan Hindiston o`rtasida tasviriy san`at yo`lida o`zaro aloqa va ta`sir bo`lmagan, degan xulosa chiqaradi. Fikrimizcha, bu xildagi xulosa chiqarmoq to`g`ri va maqsadga muvofiq bo`lmasa kerak. Buning uchun tarixga bir nazar tashlaylik.

A.A.Ivanovning fikricha, Muhammad Murod Samarqandiy 1616 yilda ham Buxoroda bo`lgan va u Sa`diyning «Bo`ston» asariga miniatyuralar chizgan. So`ng bu asar juybor shayxlaridan Abdurahim xo`jaga tuhfa qilingan. Lekin bu muhammad Murod Hindistonga bormagan degan gap emas. O`rta Osiyo (masalan, «Matlab ut-Tolibin») va Hindistonda (masalan, «Tuzuki Jahongiri») yozilgan tarixiy manbalarda ko`rsatilishicha, Imomqulixon (1611-1642) hukmronligi davrida Buxorodan Hindistonga juybor shayxi Abdurahim xo`ja boshliq elchilar yuborilgan. Elchilar o`zlari bilan turli-tuman qimmatbaho mato va ashyolar qatorida imperator Jahongirga tuhfa tariqasida miniatyuralar bilan bezatilgan qo`lyozma asarlar ham olib kelganlar. Abdurahim xo`ja (uni ba`zi manbalarda Xo`ja Abdurahim xo`ja deb ham tilga oladilar) 1627 yil imperator Jahongir bilan birgalikda Kashmir viloyatiga qilingan safarda vafot etadi. Bu voqeadan ko`p o`tmay Kashmirda hind hukmdori dunyodan o`tdi.

Ingliz san`atshunos olimi P.Braun o`zining mo`g`ul (ya`ni boburiylar, Hindiston) miniatyura maktabiga bag`ishlangan asarida XVII asrda Hindistonda Muhammad Nodir Samarqandiy bilan bir davrda ikkinchi bir o`rta osiyolik musavvir Muhammad Murod Samarqandiy faol ishlagan va bu har ikki vatandoshlar portret janrida «siyohi qalam» deb atalgan uslubni qo`llaganliklarini bayon qiladi. Demak, Abdurahim xo`ja tuhfa qilgan qo`lyozma asarlar orasida Muhammad Murod miniatyuralar chizgan nusxa ham bo`lishi va Muhammad Murod Hindistonga Buxoro elchilari orasida kelgan bo`lishi ham mumkin.

Ijodini O`rta Osiyodan Hindistonga kelib davom ettirgan musavvirlardan Farruxbek Bobur va Akbar tasvirlarini chizgan, Muhammad Nodir Samarqandiyning esa Britaniya muzeyida o`n bitta, Parij va Leningrad ilmiy muassalarida bittadan imzo chekkan portretlari mavjud. Bular orasida Jahongir, Shohi – Jahon, Sher Muhammad Navvob, Kashmir hokimi Izzatxon va

boshqalarning suratlari bor.

Portret janrida musavvi Abul Hasan ham samarali ijod qilgan, uning bizgacha «Jahongir otasi Akbar suratini ushlab turibdi», «SHohi – Jahon» tasviriy lavhalari yetib kelgan.

Miniatyuralarga faqat san`at namunasi, go`zallik ramzi, deb qarash bir tomonlama bo`lur edi, albatta, aslida u o`zida ijtimoiy – siyosiy voqealarni aks ettiruvchi manba hamdir. XIII-XIV asrlarning boshlarida yashab ijod etgan Xorazmning atoqli shoiri va mutavakkiri Mahmud el orasida «Pahlavon» laqabi bilan shuhrat qozongan.

Pahlavon Mahmudning hind polvoni bo`lgan kurashiga doir chizilgan miniatyuralardan biri hozir O`zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Rasm O.Galerkinaning «Movarounnahr miniatyurasi» (rus va ingliz tillarida. Leningrad, 1980) asarida chop etilgan va u «Pahlavon Mahmudning yosh hind polvoni bilan kurashi» deb nomlangan. O.Galerkinaning taxminiga ko`ra, asar O`rta Osiyo va Hindiston musavvirlarining hamkorligida XVII asr boshlarida yaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, san`atshunos olimlar zimmasida imzo chekilmagan ko`pdan-ko`p miniatyura asarlarni qidirib topish, ularni atroflicha o`rganish, tahlildan o`tkazish va shu asosda XIII-XIV asrlarda O`rta Osiyoda mustaqil tasviriy san`at maktablari uyushtirilganligini aniqlash va isbotlash vazifasi turibdi.

2.2. XVIII–XIX asrlarda Movarounnahr miniatyura maktablari

Amir Temur davrida ham miniatyura bilan bezatilgan qo`lyozmalarni tor doiradagi zodagonlar sevib mutolaa qilishgan. Tarixda o`chmas iz qoldirgan buyuk shaxs, ulkan bunyodkor, yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, ilm- fan va madaniyat homiysi bo`lmish Amir Temur davri butun bir tarix zarvaraqlarida eng gullagan davr hisoblanadi. U o`zidan kelajak avlodga bitmas-tuganmas me`ros qoldirdi. Qaerni bosib olmasin, ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Masalan, uning davrida Samarqand, Kesh, Shosh kabi shaharlarimizda osmono`par binolar qad

ko`tardi, bir qancha bog`u-rog`lar bunyod etdi. Uning davrida me`morchilik, amaliy san`at, devoriy surat, qo`lyozma san`ati, miniatyura va boshqa ko`pgina san`at turlari keng rivojlangan.

Amir Temur va Temuriylar davri o`zining devoriy suratlari va miniatyuralari bilan tanilgan bo`lib, o`zini islomgacha bo`lgan ildizi va an`anasiga ega. Qo`lyozma kitobdagi miniatyura tasvirlari-devoriy suratdan keyin ikkinchi o`rinda turadi. Shuning uchun Temur va Temuriylar davri qo`lyozma miniatyuralariga o`tishdan avval devoriy suratlarga murojat qilamiz.

Amir Temur me`moriy inshootlarning asosiy buyurtmachisi bo`lgan. Ibn Arabshox, Yazdiy, Bobur Hirot saroyida, Bog`i-SHamol, Dilkisho kabi Samarqand saroyini devoriy suratlarini o`ziga xos ajoyibligini katta hayajon bilan aytib o`tganlar. Bu inshootlarda tashriflar-majlislar, sohibqironning kulib turgan yoki suronli portretlari, uning o`g`illari, nabiralari, yurishlari va shaharni, qal`alarni qamal qilishlar, xukumdorning tantanavor bayramlari, ovlar, malikalar ishtirokidagi sahnalar tasvirlangan.

Amir Temur fikricha, mahobatli rang tasvir o`zida mujassamlagan turli xil janrlari: portret, saroy hayoti, o`ziga hos voqelikni tasvirlashi kerak bo`lgan. Hukmdor boshqaruvi davridagi asosiy rassom ustalar Pir Ahmad Bog`i Shamoliy bo`lib, Bog`i Shamol saroyi devoriy suratlarini yaratgan bo`lishi ham mumkin. Shirin beka og`o, Bibi xonim, Tuman og`o maqbaralarida ham manzara tasvirlaridan qoldiqlar saqlanib qolgan. Kompozitsiyasi bo`yicha u vertikal panno qilib ishlangan.

Qo`lyozma kitoblaridagi miniatyura tasvirlari devoriy suratdan keyingi o`rinda turadi. Bilimga, kitobga mehri baland bo`lgan Temur tinmay turli mamlakatlardan qo`lyozma kitoblarni olib kelgan, buyurtma qoldirgan. Shunday boy, afsonaviy kutubxona tashkil etgan. Yazdiyning bergan ma`lumotlariga qaraganda Amir Temurning muhim noyob buyumlar saqlanadigan joyi bo`lgan. Unda Arjang Manining mashhur albomidagi haqiqiy suratlari bo`lgan. Bu suratda qadimgi Manixey tasviri o`rin olgan bo`lib, XV asr Samarqand rassomlari tanishishi mumkin bo`lgan. O`rta Sharqda «Arjang» tasvirlari tasviriy san`atning

buyuk timsoli hisoblangan.

Amir Temur hukumronligi davrida kitob illyustratsiyasi san`ati uzoq davlatlargacha cho`zilgan. XIV asr oxiri XV asr boshlarida Samarqand, Xirot, Bag`dod, Sheroz, Tabriz, Yayadiy kabi shaharlarda rassomlik markazlari bo`lgan. Bu jarayonda eng qiyin davr XIII asr bo`lgan, chunki mo`g`ullar bosqini nafaqat miniatyura rivojiga, balki barcha madaniyatga ta`sir etgan. Ko`pgina arboblari, shuningdek rassomlar ham Movaraunnaxr va Xurosondan Eronning janubiga qochib ketganlar. U yerda ular o`z xunarlarini va san`atlarini davom ettirganlar. XIV asrgacha miniatyura maktablarining orasidagi mulokot epizodlik bo`lib, shuningdek chegaralangan ham bo`lgan. Deyarli yuz yillik mo`g`ul istibdodidan so`ng Temuriylar XIV asrning oxirgi choragida dunyodagi eng qudratli saltanatni bunyod etib, ulkan markazlashgan davlatni tuzdi. Markazlashgan Temuriylar davlatining birlashuvidan so`ng Samarqand, Xirot, Sheroz, Bog`dod maktablari orasidagi aloqa XV asr boshlariga borib mustahkamlanib, faollashgan. Temuriylar davri O`rta Osiyoning iqtisodiy – ijtimoiy hayoti, madaniyati, ilm -fani, adabiyoti, san`ati taraqqiyotida o`ziga xos o`ringa ega bo`ldi. Samarqandda yashab ijod etgan Rumi, Mirzo Ulug`bek, J.Koshiy va Ali Qushchilarning astronomiya fani taraqqiyotiga qo`shgan hissalarini butun dunyo tan oldi. Jahonga mashhur tarixchilardan-Nizomiddin Shomay, Sh.A.YAyadiy, A.Samarqandiy, Hofizi Abro`, Muhammad Mirxond kabi olimlarning asarlari hali xamon matuxassislar uchun mo`tabar manba, tuganmas xazinadir. Badiiy adabiyot sohasidagi Sakkokiy, Lutfiy, A.Jomiy, A.Navoiy, X.V.Kashifiylarning asarlari esa hozirgi kungacha yuksak mahorat mahsuli bo`lib hisoblanadi. O`sha davr boshida Mir Ali Tabriziy tomonidan yaratilgan eng go`zal nastaliq yozuvi yetakchi o`rinni egallab, bu yozuvni puxta egallagan Jafar va Ayahar Boysunquriy, Abdurahim Xorazmiy, S.A.Mashhadiy, M.A.Heraviy kabi xattotlar, Ustod Abdulxay, Mansur, G`iyosiddin Naqqosh, Pir Ahmad Bog`ishamoliy, Mirak Naqqosh, Shoh Muzaffar, Qosim Ali Chehrakisho, Yoriy Muzahhib, Jamoliddin Yusuf kabi miniatyurasozlar o`z sohalarida ustod san`atkorlar bo`lib, Samarqand va Hirot maktablarining

shuhratini dunyoga tanitganlar.¹⁵

Ilm-fan, mumtoz adabiyotning tarkibiy qismi bo`lmish kitobat san`ati-xattotlik, lavvohlik, jadvalkashlik, muzahhiblik, muqovasozlik va rassomchilik ham o`zining yuksak taraqqiyot darajasiga ko`tarildi. Ustalar migratsiyasi, yangi poytaxtga joylashuvi XV-XVI asrlarda g`oyatda ulug` va gullagan miniatyura rivojisha olib keldi. Shoxruxning o`g`li Ibroxim Sulton Sherozda ochgan rassomlik ustaxonasidagi ishlagan Bog`dod va Tabriz rassomlari ishlashi natijasida jiddiy yassilikka sheroz maktabi XIV asr oxirida tabriz-bog`dod maktablarini ta`sirini ifoda eta boshladi. Sherozda bajarilgan Boysung`ur Xirot maktabi uchun ishlangan «SHe`riyat *antologiya*»si 1420 yildan boshlab unda bog`dod uslubi yassilik va kam figuralik sheroz an`anaviy maktab qo`llanmalari ishtirok etgan. Amir Temur davri miniatyuristlarning shakllanishidagi kuchli maktab bu Samarqandda bo`lgan. Xoja Ahrorning yashirin xujjatlarida 1489 yildan (barcha sohadagi) rassomlar ko`chalari bitilgan-Kuyi Nakkashon ahamiyatlidir. XV asr qo`lyozmalari qatorida ko`pgina qisman ko`p figurali portret-kartinalar saqlanib kelgan. Ular ilk samarqand miniatyuralarining originallardan kopiyalar bo`lgan. Ularda shuningdek Temur tasvirini ham uchratish mumkin. Asarda Temur tabiat qo`ynida, bayramda va bir qancha variantlarda tasvirlangan. XV asr boshida Samarqandda ishlangan miniatyuralar batal janrida bo`lib, «SHahar devori yonidagi jang», «Tog`dagi Shox ovi» shular jumlasidan. «Jang» manzarasi temuriylarga xos (Istambul, Yulduz kutubxonasi). Unda qal`a devori balanda arrasimon parapet, minora bilan tasvirlangan bo`lib, kuchli muloxazali ko`rsatgan. Ulug`bek hukumronligi davrida (1397-1447 yy) qiziqarli illyustratsiyalangan qo`lyozmalar vujudga kelgan. Ular orasida bizgacha yetib kelganlari:

– Abduraxmon So`fiyning astronomik trakti «Suvar al-kavakib as-Sabita» (Parij, Milliy kutubxonasi); -Ulug`bekning burgut oviga bo`lgan sayohati bilan bog`liq alohida miniatyura qo`lyozmasi. Yuqorida –karkasli ayvonda tasvirlanuvchining nomi ko`rsatib o`tilgan. «Ulug` sulton, Ulug`bek Ko`ragon, uning boshqaruvini ollox o`zi qo`llasin» deya bitilgan (Topkapi Saroy, Istambul). –

¹⁵ О.Усмонов, А.Мадрахимов. «Камолиддин Бехзод» – Т. 2000 й. 4–бет.

Nizomiyning «Hamsa»si va unga ishlangan XVIII ta miniatyura (Topkapi Saroy, Istanbul, № 786). Miniatyura tasviridagi ajoyib tarixiy noyob xujjatlar qatorida xukumdor Ulug`bek va uning oilasini burgut ovida tasvirlanishidir. Miniatyurada etiketlilik hukum suradi. Bu miniatyura ko`rinishidan diptix bo`lishi mumkin, lekin uning chap qismi saqlanib qolinmagan. Nizomiyning «Hamsa»sini o`rganib chiqqan olimlar uni aynan Ulug`bek Ko`ragon davriga tegishlilikini asrdagi medalonidan bildirganlar. Unga ishlangan miniatyurani sinchiklab ko`rganlarida miniatyuralardan 14 tasi Sulton aliga, qolgan 14 tasi esa nomalum rassomga tegishli bo`lib chiqdi.

1420 yildan boshlab xirot rassomlik markazi oldinga chiqa boshladi. Navoiy o`zining «Majolis un-nafois» asarida Boysung`urning davrini yoritadi: «Uning mehribonchiligidan shunchalik ko`p xattotlar, rassomlar, musiqachilar va qo`shiqchilar ko`payib ketdiki, boshqa xukumdor davrida shuncha bo`lganmikan, aniqmas»¹⁶

Boshqa shaharlardan Hirotga ko`pgina rassomlar, xattotlar kelishgan. Boysung`urning buyrug`iga ko`ra Tabrizdan Sayid Ahmad Naqqosh, Xoja musavvir va muqavaso Kavamiddin Tabriziyini olib kelishgan. Bu yangi ish ustaxonasiga Mavlono Farididdin Jafar Tabriziyini bosh qilishdi. Vaqti –vaqti bilan bu yerda turli maktab ustalarining birlashishi jarayonida rassomlik maktabining yangi xirot uslubi vujudga keldi. Bog`dod va sheroz maktabining ta`siri-tabiati obrazini shoirona umumlashtirdi. Xirot maktabi me`moriy tasvirlarni aniq geometrik, boy va turli xil ornamentlar va detallar bilan ishlay boshlashdi. Koloritda esa, fonda och va nafis ranglardan, personajlar kiyimlarini esa –iliq ranglarda ya`ni qizil va ko`k ranglarning turli fonlarida ifodalanishgan. Obraz va syujetlarning emotsional harakati paydo bo`la boshlandi. Masalan, shundan Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asariga miniatyuralar ishlandi.

Lekin, temuriylar miniatyurasining gullagan davri Hirotda bu sulolaning so`nggi hukumdori Sulton Husayn Boyqaro vaqtida (1469-1506 yy) amalga oshadi, shuningdek uning vaziri buyuk shoir, davlat arbobi Alisher Navoiyning

¹⁶ Амир Тему́р в мировой истории. Стр 167

ham hissasi katta bo`lgan. U iste`dodli san`at shnavandalarini-rassomlar, musiqachilar, qo`shiqchilar, xattotlarning homiysi bo`lgan. Z.M.Boburning yozishicha: «Sulton Husayn Mirzo davri bu eng yaxshi vaqt bo`lgan. Xuroson ayniqsa Xirot uning hukmdorligi vaqtida olimlar va bir qancha allomalar bilan to`la bo`lgan. Har bir inson biror-bir hunar bilan shug`ullangan, ularning mana shu ishni tugallab, maromiga yetkazish kerak degan maqsadi va xoxishlari bo`lgan».¹⁷

XV asr ikkinchi yarmida xirot miniatyura maktabi davom etib yanayam yuqori cho`qqilarga erishib bordi. Bu vaqtda Hirotda iste`dodli miniatyuristlardan-Mirak Naqqosh, Behzod, Muhammad naqqosh, Qosimi Ali va boshqalar faoliyat yuritganlar. Ularga ko`pincha Nizomiyning Husrav Dehlaviyning, Navoiyning «Hamsa»lari va shuningdek Sa`diyning «Guliston» va «Bo`ston» asarlariga buyurtmalar berishardi.

Temuriylar davridagi barcha miniatyura maktablarining tematikaga umumg`oyaviy yo`nalishi ikki voqeaga tarixan mos tushgan. Ular Amir Temurning jahon sahnasiga chiqishi va islom dunyosida sufizm targ`iboti singari komil insonni tarbiyalash yo`lini izlashda muhim shakllanishning tugashi bilan bog`liq. Temuriylar davri boshidan ko`p falokatlarni o`tkazganki, nihoyat davlatni barpo etishda eng aktual masala bu hayotni barcha ijtimoiy tomonlarini ham yonma-yon turib, islom an`analariga rioya qilish bo`lgan.

¹⁷ Амир Тему́р в мировой истории. Стр 168

2.3. Ijodiy ishni yaratilishi

Ijodiy ishimizni aynan qovoqqa ishlash niyatimiz zamonaviy ko`rganzmalarda miniatyura asarlarini ko`rganimizdan boshlangan. Hajmli buyumlarga ishlangan miniatyuralarning ta`siri yanada kuchli deb hisoblaymiz. Biroq, viloyatimizda qadimdan qolgan hajmli buyumlarga ishlangan miniatyuralarni deyarli uchratmadik. Shu munosabat bilan mavzuimizdan kelib chiqqan holda rassomlar ijodi, ustaxonalar, badiiy asarlarni o`rganishdan ish boshladik. XIX asrda yashab ijod qilgan rus rassomi, tarixiy va jang manzaralari ustasi V.V.Verentsagin tomonidan yaratilgan 2 ta asar diqqatimizni tortdi. Ular 1873 yilda rassomni O`rta Osiyo bo`ylab qilgan ijodiy safari davomida yaratilgan “U dveroy mecheti” (Masjid eshigi oldida) va “Torjestvuyut” (Tantana qilmoqdalar) asarlari bo`lib, bu har ikkala asarda ham odamlarni kundalik ehtiyoji buyumi sifatida qovoqdan foydalanganligini ko`rishimiz mumkin.

“Masjid eshigi oldida” asarida eshikni ikki tomonida darvishlar tasvirlangan. Eshikni o`ng tomonida tik turgan darveshning beliga (belbog`iga) osilgan qoqov, chap tomonida o`tirgan darvishni oldida, yerda turgan qovoq tasviri diqqatimizni tortdi. Darvishlarni ust –boshidan tashqari xossalari va qovoqlaridan tashqari birorta buyum uchramaydi. Bundan shunday xulosa qilish mumkin. ular doimiy safarlarda yurgani uchun eng zarur narsalarnigina o`zlari bilan olib yurishgan va birinchi navbatda yo`lovchi uchun suv zarur bo`lgan. Bundan xulosa qilib, qovoqdan suv idish sifatida foydalanishgan deb aytishimiz mumkin. shu yerda yana bir xususiyat qiziqarli deb hisoblaymiz, bu ham bo`lsa qovoqlarning to`q jigarrangda tasvirlanganligi. Axir tabiatan qovoq och sarg`imtir tusda bo`ladi, demak qovoqqa ishlov berilgan deyishimiz mumkin.

“Tantana qilmoqdalar” (Torjestvuyut) asari ko`p kishilik kompozitsiyadan iborat bo`lib, unda Samarqand shahrining Registon maydonida to`plangan haloyiq oldida uzun qoziqlarga odamlar boshi sanchilgan holda turibdi. To`planganlarning oldi qatoridagilar bir xilda tartib bilan o`tirishi va ularning orqasida ham tartib bilan tik holatda turishi bu oddiy olamoni to`planishi bo`lmasdan, saroy ahli va xalqning umumiy yig`ilishidan iboratligini ko`rishimiz mumkin. asar mazmunidan

ko`rinib turibdiki, yurtga bostirib kirgan bosqinchilarning mag`lubiyati va ularga ko`riladigan chora haqida yig`ilish bo`lib o`tmoqda. Bu bilan rassom O`rta Osiyo xalqini, xususan o`zbeklarni vahshiyiligini ko`rsatmoqchi bo`ladi. Ammo, biz asarning mazmuniga, kompozitsion yechimiga e`tiborni qaratmoqchi emasmiz. Biz e`tiborini asarning oldi plan o`ng tomonida o`tirgan odam va uni oldida og`zi ochiq holda turgan qovoqqa va undan keyingi planda turgan odamlar orasidagi, asar markazida tamoshabinga orqasi bilan turgan ikki darvesh hamda birining belbog`iga osilgan, ikkinchisini oldida, yerda turgan qovoqqa qaratmoqchimiz. Bu asardan ham avvalgi asardagi singari xulosa kelib chiqadi.

Bundan 135 yil muqaddam bajarilgan 2 ta asarda ham ajdodlarimiz qovoqdan kundalik ehtiyoji buyumi sifatida foydalanganliklarini shohidi bo`ldik. Xo`sh, o`zi qovoq nima? Va undan nima uchun foydalanilgan? -degan savol tug`iladi. Eng asosiysi uni qachondan buyon bezatilgan? Degan savol ham paydo bo`lishi tabiiy. Bu savollarga javob izlab ko`plab san`atkorlar, rassomlar, biolog olimlarga murojaat qildik.

Qovoqdoshlar (CUCURBITACCAE) ilmiy adabiyotlaridagi ma`lumotlarga ko`ra 900 dan ortiqroq turlarga ega bo`lib, uning yovvoyi turlari Afrika, Osiyo, Amerika qit`alarida ko`p uchraydi. Mo`tadil iqlimli shariotlarda kam o`sadi. Qovoqlar bir yillik, poyasi yer bag`rilab ketadigan o`simlik va uning ko`pchilik turlarining mevasi rezavorga o`xshab ketadi. O`ziga xos tuzulishga ega bo`lganligidan botanikada bunday mevani «Qovoqmeva» deyiladi. Mumtoz misol bo`lib tarvuz, oshqovoq, qovun, xandalak, bodring hisoblanadi.

Qovoqlar orasida lagenariya yoki idishqovoq (Lagenaria) turkumidan Lagenaria stceraria turi qadim zamonlardan beri ekib kelinadi, uning tabiatda uchraydigan yovvoyi turi yo`q.

Lagenaria ham boshqa qovoqdoshlar kabi bir yillik, poyasi sudralib o`savdigan o`simlik bo`lib, poyasining uzunligi 15 metrlargacha borib yetadi¹⁸. Mevasi yetilganda uni ichi quriydi, po`sti terisimon, yog`ochli elementlardan

¹⁸ Жизнь растений V том 2 –қисм. Москва «Просвещение» нашриёти, 1981 й. 57-58 бб.

tashkil topganligi tufayli ancha mustaxkam. O`zi o`ta yengil, xech ham suv o`tkazmaydi.

Pishib yetilgan, meyoriga yetkazib quritilgan meva shunchalik yengil, suv o`tkazmaski chuchuk, ichimlik suvda, xattoki sho`r suvda ham cho`kmaydi. Okean suvlariga tasodifan tushub qolgan urug`lari dunyo mamlakatlari bo`ylab tarqalgan.

Hindiston, Xitoy, Janubiy Amerika, Afrika, Okeaniya orollarining maxalliy aholisi qovoqdan suyuqlik saqlaydigan idish, oshxona anjomlari sifatida foydalanadilar. Turli o`yinchoqlar, musiqa asboblarini ham qovoqdan yasashadi.

Bizning sharoitimizda uni xalq orasida “tomosha qovoq”, -deb yuritiladi. Nos qovoq, bedana qovoq, to`r qovoq deb ham ataladi, undan asosan bedona saqlashda foydalaniladi. Respublikamining janubi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida suv, qatiq-sut mahsulotlari saqlaydigan idish, suv oladiga idish (cho`mich) sifatida foydalaniladi.

Xalq ustalari, hunarmandlar bilan suhbatlashish asosida aniqlagan ma`lumotlarga ko`ra qovoqni tabiiy holatidagi rangini to`q ko`rinishining boisi, uni odatda dog` qilingan yog` bilan sirti bir necha marotaba artiladi. Natijada u yana ham silliq, yaltiroq ko`rinishga ega bo`lish bilan birga rangi ham to`q bo`lib qoladi. Bundan tashqari uni ichki tomonini ham dog` qilingan, iliq yog` bilan artib foydalaniladi.

Qadimda qovoqdan hozirgi plastmassa idishlar singari juda ko`p sohalarda foydalanilgan. Jumladan, kichik hajmlisidan nos idish sifatida foydalanilgan bo`lsa, biroz kattalari esa sut, qatiq saqlashda qo`l kelgan. O`rtacha hajmdagilaridan esa suv idish sifatida foydalanilgan. Undan suv, sut, qatiq saqlashda foydalanishning tibbiyot tomonidan ham afzalliklari bor. Eng asosiy afzalliklaridan yana biri chinni yoki sopol singari tezda sinib ketmagan. Qatiq ham qovoqda uvitilganining ta`mi, mazasi yaxshi bo`lgan, hamda uzoq muddat aynimasdan turishi ham o`z davrining muzlatgichi vazifasini o`tagan.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, uning afzalliklari juda ham ko`p. Hattoki, suzishni endigina o`rganayotgan yosh bolalarni suvda cho`kib ketmasligi uchun qovoqda foydalanilgan. Uni ustiga ishlangan naqshlar, bezak va

miniatyuralarga to'xtalsak, qovoq hajmli bo'lgani uchun ham undagi tasvirlar yanada jozibali, ta'sirchan chiqadi.

Hozirgi davrga kelib juda ko'plab tashkil qilinayotgan ko'rgazmalarda milliy san'atimiz, miniatyura san'atiga e'tibor yanada kuchayganligini ko'ramiz. XIX asr oxirlaridan boshlab nazardan chetda qolgan miniatyura XX asr oxiri va XXI asr boshidan boshlab yana qayta jonlandi, o'zining yangi davriga shahdam kirib keldi.

Namangan milliy hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish kasb –hunar kollejida bu borada salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Amaliy san'at kafedrasini mudiri, Oliy toifali o'qituvchi Ahmedov Muxammadsoli aka rahbarligi ostida o'qituvchilardan Elmurod Yusupov, talabalardan Obidov Isroil, Nuriddinova Dilafuz, Naimova Roxila kabi ko'plab yoshlar miniatyura san'atida ijod qilib, ko'rgazmalarda faol qatnashib kelmoqdalar. 2013 yil 3 iyun kuni kollej o'qituvchilari va talabalari "Rangin dunyo" nomli ko'rgazma tashkil qildilar. Ko'rgazmada qog'ozga quticha, qovoqqa, teriga va shu kabi materiallarga ishlangan 60 dan ortiq miniatyura asarlari bilan qatnashdilar.

Biz amaliy san'at yo'nalishi talabalari ham miniatyura san'atini egallashimiz kerak bo'ladi. Asosan miniatyura san'atida ijod qilib kelayotgan Namangan shahar San'at kolleji o'qituvchisi A'zamjon Valiyev bo'lib, uning Alisher Navoiy asarlariga ishlangan "Layli va Majnun", "Baxrom ovda" kabi asarlari bilan birga "Ilhom parisi", "Sozanda" kabi mavzuli kompozitsiyalari hamda "Manzara" mavzusiga oid turkum asarlari tomoshabinni o'ziga jalb qiladi.

Afsuski, viloyatimizda yagona bo'lgan miniatyurachi rassom, "Mashrab" mukofoti sovrindori A'zamjon Valiyev ham endilikda Toshkentda yashab, ijod qilmoqda. Biz boshlagan tadqiqot ishimizga A.Valiyevni ilmiy konsultant qilib olishni rejalashtirgan edik, nasib qilmadi.

Viloyat hunarmand uyushmasi ko'rgazma zalidan o'rin olgan miniatyura asarlari bilan tanishdik u yerdagi miniatyuralar muallifi Andijonlik rassom Nurmatjon Sharipov b'lib ch'yd'i. Rassom Andijondagi Bobur muzeyini b'lim boshlig'i bo'lib ishlab, ijod qilib kelar ekan. Nurmatjon akani asosiy ijodxonasi

o`zi doimiy yashash joyi bo`lgan. Andijon viloyati Baliqchi tumani Chinobod qishlog`ida ekan. U yerda bo`lganimizda aynan bizning tadqiqot ishimizga doir “Qovoqqa ishlangan miniatyuralar”ni ko`rdik. Turli o`lcham va shakldagi qovoqlar va ularga ishlangan miniatyuralar kishini lol qoldiradi. Bundantashqari rassomni quyon, qo`y, mol kabi jonivorlarning terisiga ishlangan asarlari ham beixtiyor qadimgi miniatyura san`atini yodga soladi.

Biroq, rassom N.SHaripov ham qovoqqa qachondan buyon miniatyura ishlanib kelinadi, qovoqning afzalliklari haqida yetarli ma`lumotlarga ega emas ekan.

Biz olib borgan tadqiqotimizga asoslangan holda va ijodxonada hamda ko`rgazma zallarida rassomlar bilan bo`lgan uchrashuv, suhbatlarga tayanib amaliy ishni bajardik. Avvalo, qovoqni olib quyoshli joyda yaxshilab quritdik. Qovoqni mevasi yaxshi quriganida, uni qo`lga olib siltaganimizda ichidagi urug`i qovoq devorlariga urilib ovoz chiqardi. Ammo, biz quritgani qo`ygan 2 dona qovoqning bittasi yaxshi quridi, 2-si esa osti zax joyda turgani uchun yaxshi qurimadi. Bundan xulosa qilib, qovoqni quritishga ham alohida e`tibor berish lozimligini ta`kidlab o`tmoqchimiz.

Qurigan qovoqni yaxshilab artib tozaladik, ustiga oldindan tayyorlab qo`ygan xomaki nusxa asosida miniatyurani chiziqli tasvirini tushirdik. Shunda o`ziga xos muammoga duch keldik, bu ham bo`lsa, qog`ozning tekis sathidagi tasvirni hajmli qovoq yuzasida boshqacha ko`rinishi bo`ldi. Uni qaysi tomondan kuzatishimizga qarab ham o`zgacha his qilish mumkinligi diqqatimizni jalb qildi.

Chiziqli tasvirni ustidan yetakchi bo`lgan ranglarni berish bilan ishning keyingi bosqichiga o`tdik. Umumiy ranglarni berib bo`lgach esa pardoqlash ishlarini, ya`ni tasvirning chiziqli (rangda) ko`rinishini bajardik. Ishning eng asosiy va mas`uliyatli tomoni ham shunda bo`ldi. Rangli chiziqlar bir qarashda tasvirni hajmini yo`qotadigan vosita bo`lib ham xizmat qilishi yoki aksincha, asarimizga yorug` –soya, hajm berishi hamda g`oyaning badiiy ifodaviy tili sifatida xizmat qilishi mumkin edi. Buni ustiga, ko`pincha, tempera bo`yoqlari yordamida

miniatyura ishlanadi, biz esa guash va vodoemulsiyadan foydalanishni ko`zda tutgan edik.

U holda rangsiz lokdan ham foydalanish zarur bo`lar edi. Unda ranglarni biroz bo`lsa ham to`qlashishi natijasida ishimizni o`zgarish xavfi bor edi. Har tomonlama o`ylab ko`rib temperani tanladik va u yordamida tasvirni bajardik. Bo`sh qolgan joylarga yanada jozibali ko`rinishi uchun dog` qilingan yog` yordamida ishlov berib chiqdik.

Ichki tomoniga ham yog` quyib, artib chiqdik. Natijada qovoq nafaqat tashqi, balki ichki tomondan ham suv o`tkazmaydigan bo`ldi.

XULOSA

Miniatyura san`ati tom ma`noda o`zining yangi davriga yurtimiz mustaqillikka erishganidan so`ng kirib keldi. Unutilgan an`analar qayta tiklandi.

Miniatyura san`ati XX asrning ikkinchi yarmida o`zining tarixiy ildizlarini san`atshunos olimlarimiz, miniatyurachi rassomlarimiz say`i –harakati bilan topdi. Bu ishga katta hissa qo`shgan olimimiz, akademik Golina Anatoliyevna Pugachenkovaning zamondoshlari xalq rassomlari Chingiz Axmarov, Telman Muxammedov, To`xtabek Soipov, Javlon Umarbekov, Temur Sa`dullayev, Abdulboqi G`ulomov, Temurg`olib Jamoldinov va shu kabi boshqa rassomlar ijodida ham miniatyura san`ati an`analariga murojaat qilish kuchaydi.

Bularning ichida Shomaxmud Muxammadjonovning Sharq miniatyurasini yaratish va qayta tiklashda tutgan o`rni ham katta. Uning asarlarida Sharq miniatyura san`atining eng yaxshi badiiy xususiyatlari- tabiatni biroz ideallashtirib, yorqin va sof ranglarning o`zaro uyg`unligi, ba`zan esa keskin qarama-qarshi qo`yilishi, juda nozik, nafis, ammo mohir hattotlarning yozuvini esga soluvchi tekis va ravon chiziqlar yordamida ixcham yuzada juda aniqlik bilan yaratilgan shakllar, tanlangan mavzu mohiyatini yuksak mahorat bilan ochib berishni ko`ramiz. Bu singari miniatyurachi rassomlarni juda ko`plab keltirishimiz mumkin. biroq, biz tadqiqot ishimizdan chetga chiqmadan, olib borgan ishimiz natijalariga asoslangan holda hamda tadqiqot jarayonida duch kelgan muammolardan kelib chiqib kelgusida olib boriladigan tadqiqotlar uchun quyidagi taklif va mulohazalarimiz bilan o`rtoqlashmoqchimiz.

- Oliy dargohda o`qish jarayoniga ham miniatyurani o`quv fani sifatida kiritish;
- Miniatyurachi rassomlar bilan ijodiy muloqot va suhbat uyushtirish;
- Miniatyura uchun zaruriy bo`lgan xom ashyolar va ular bilan ishlash texnologiyasiga oid qo`llanma va darsliklarni yaratilishi;
- Kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini oliy o`quv yurtida o`qishlarini davom ettirishlari ochilishi kerak;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. “O`zbekiston buyuk kelajak sari”. –T; 1998 y.
2. I.A.Karimov. “Temur va Ulug`bek tarixi” –T; 1996 y.
3. I.A.Karimov. “Amir Temur va temuriylar madaniyati va san`ati” – T; 1996 y.
4. I.A.Karimov. “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” 2-jild. –T; 1996 y.
5. Мирзиёев Ш.М. “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз”. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи.- Т.: “Ўзбекистон”, 2016.
6. Мирзиёев Ш.М. “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб – интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши шарт”. Ўзбекистон республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. – Т.; 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – Toshkent.: “O`zbekiston”, 2017.
8. Sharq miniatyura maktablari. Maqolalar to`plami. T; 1989 y. Nafosat olami. 5-6 bb.
9. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar I jild. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1968, 83 –bet
- 10.I.V.Pyankov. Drevniy Samarkand (Marokandy) v izvityax antichnykh avtorov. Dushanbe, 1972. 12 13 bb.
- 11.L.I.Albaum. Jivopis. Arasiaba. Tashkent, «Fan» 1975.
- 12.I.Abdullayev. Alloma va adib. “O`zbekiston adabiyoti va san`ati” gaz. 1984 y. 2 noyabr
- 13.Persidskie miniatyury. XIV –XVII vv. O.F.Akimushkina i A.A.Ivanovo. M; 1968

14. Sharq miniatyura maktablari. N.Valiulina. Eron miniatyura maktabi. T; 1989 y. 16–b.
15. G.A.Dmitriyev. Rasprostranenie indiyских izdaniy v Sredney Azii v kontse XIX– nach. XX va Kniga. Issledovaniya i materialy. M., 1962,
16. Ye. E. Bertels. Literatura na persidskom yazyke v Sredney Azii, «Sovetskoe Vostokovedenie», 1943, №4, str. 227.
17. L. N. Dodxudoeva. Otrazhenie literaturnyx syujetov v Srednevekovoy miniatyurnoy jivopisi. Avtoreferat kand. diss. L., 1979, str. 13.
18. G.A. Pugachenkova, L. I . Rempel. Istoriya iskusstv Uzbekistana. M., 1965, str. 317
19. N.Adamova, T.V. Grek. Miniatury Kashmirskix rukopisey. –L., «Iskusstvo», 1976, str. 25
20. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma, 252 – bet
21. O.Usmonov Kamoliddin Behzod va uining naqqoshlik maktabi. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1977, 44-46-betlar
22. G.A.Pugachenkova «Iskusstvo», 1979 M; № 2 «K diskussii sredneaziatskoy shkoly miniatyurnoy jivopisi XV veka»
23. O.Usmonov, A.Madrahimov. “Kamoliddin Behzod” – T. 2000 y. 4–bet.
24. Amir Temur v mirovoy istorii. Str 167
25. Amir Temur v mirovoy istorii. Str 168
26. Ibn Arabshoh. “Amir Temur tarixi” –T; 1992 y.
27. Jizn rasteniy V tom 2 –qism. Moskva «Prosvetshenie» nashriyoti, 1981 y. .
28. O.X.Usmonov. “Behzod va uning naqqoshlik maktabi” –T; 1997 y.
29. N.Norqulov. “Kamoliddin Behzod” –T; 1964 y.
30. A.Madraximov, N.Normatov. “SHarq miniatyura maktablari”. Maqolalar to`plami. –T; 1989 y.
31. N.U.Abdullayev. “San`at tarixi”. 2–jildlik 2/1. –T; 2001 y.
32. N.Oydinov. “O`zbekiston tasviriy san`ati tarixidan lavhalar.” –T; 1997 y.
33. N.Oydinov. “Tasviriy san`at tarixi”. –T; 2007 y.

34.Sh.Shoyoqubov. “Zamonaviy O`zbekiston miniatyurasi”
(Sovremennaya miniatyura Uzbekistana, Contemporary miniature paintings
of Uzbekistan). – T; 2006 y.

35.V.I.Abdullayev. “Qadimgi Sharq tarixi”. –T; 1965 y.

36.G.A. Pugachenkova, L.I.Rempel. “Ocherki istorii iskusstvo sredney Azii”.
M., 1965, str. 317

Internet ma`lumotlari.

uzvepovt. Com.

<http://www.anons.uz/uz/index.php?Mod=article&cot=1528/>



Тоҳир Болтабоев. Фарҳод Суқрот ҳузурнда.
1985 й.



Ғани Алдашев. Ов манзараси. 1985 й.
12-1092

Аброр Турсунов.
Намоён. «Дарвишлар».
Чарм, темпера, сувбўёқ,
1995.

Аброр Турсунов.
Панно. «Дервиши».
Кожа, темпера, акварель.
1995.

Abbrar Tursunov.
Panel. «Dervishes». Leather,
tempera, water-colour.
1995.



Фахриддин Рахматуллаев.
Намоён. «Овчи». Чарм,
тахта, темпера. 2005.

Фахриддин Рахматуллаев.
Панно. «Охотник». Кожа,
дерево, темпера. 2005.


Fakhriddin Rakhmatullaev.
Panel. «Hunter». Leather,
wood, tempera. 2005.



Шарасул Шаахмедов.
Думалоқ кутуча.
«Муסיқачилар». Тошқоғоз,
пигмент, лак. 2006.

Шарасул Шаахмедов.
Баул. «Музыканти».
Папье-маше, пигмент, лак.
2006.

Sharasul Shaakhmedov.
Trunk. «Musicians».
Papier-mache, pigment,
lacquer. 2006.





Шорасул Шаахмедов.
Кутича. «Севишганлар
боғда». Тошқоғоз, пигмент,
юпка зарварақ, лак. 2002.

Шорасул Шаахмедов.
Шкатулка. «Влюбленные в
саду». Папье-маше,
пигмент, сусальное золото,
лак. 2002.

Sharasul Shaakhmedov.
Box. «Lovers in the garden».
Papier-mache, pigment, gold
leaf, lacquer. 2002.



*Мунира Сотиболдиева.
Идиш. «Сарвиноз». Каги,
темпера, сувбўёқ, лак.
2005.*

*Мунира Сатыбалдыева.
Сосуд. «Красавица». Тыква,
темпера, акварель, лак.
2005.*

*Munira Satybaldieva.
Vessel. «Beauty».
Pumpkin, tempera,
water-colour, lacquer.
2005.*





Мунира Сотиболдиева.
Идиш: «Баходыр». Кади,
темпера, сунбүөк, лак.
2005.

Мунира Сатыбалдиева.
Сосуд: «Баходыр». Тыква,
темпера, акварель, лак.
2005.


Munira Satybaldieva.
Vessel: «Bakhodyr».
Pumpkin, tempera,
water-colour, lacquer.
2005.

Мунира Сатибалдыева.
Идиш. «Наврӯз». Кади,
темпера, сувбӯёк, лак.
2005.

Мунира Сатибалдыева.
Сосуд. «Наврӯз». Тыква,
темпера, акварель, лак.
2005.

Munira Satybaldieva.
Vessel. «Navruz».
Pumpkin, tempera,
water-colour, lacquer.
2005.





Мунира Сатибалдиева.
Идиш. «Орзу». Кағи,
темпера, сувбўёқ, лак,
2005.

Мунира Сатибалдиева.
Сосуд. «Мечта». Тыква,
темпера, акварель, лак,
2005.

Munira Satybaldieva.
Vessel. «Dream».
Pumpkin, tempera,
water-colour, lacquer,
2005.



Мунира Сатыбалдиева.
Пардоз-андоз идиши:
«Шарқ». Кага, темпера,
лак. 2005.

Мунира Сатыбалдиева.
Парфюмерный сосуд.
«Восток». Тыква, темпера,
лак. 2005.

Munira Satybaldieva.
Perfumer's vessel: «Orient».
Pumpkin, tempera,
lacquer. 2005.

*Мунира Сотиболдиева.
Тўллам. «Сухбат». Қади,
темпера, сувбўёқ, лак.
2005.*

*Мунира Сатыбалдыева.
Комплект. Вариация на
тему «Беседа». Тыква,
темпера, акварель, лак.
2005.*

*Munira Satybaldieva.
Complete set. Variation
for theme «Conversation».
Pumpkin, tempera,
water-colour, lacquer.
2005.*



MUNDARIJA

KIRISH _____

I.bob. Miniatyura san`ati _____

**1-§. Miniatyura san`ati tarixi, arab va eron
miniatyura san`ati** _____

2-§. Temur va Temuriylar davri miniatyura san`ati _____

3-§. Kamoliddin Behzod ijodi _____

II. bob. O`zbekiston miniatyura san`ati _____

2.1-§. XVI–XVII asrlar miniatyura san`ati _____

**2.2-§. XVIII–XIX asrlarda Movarounnahr miniatyura
maktablari** _____

2.3-§. Ijodiy ishni yaratilishi _____

Xulosa _____

Ilova _____

Foydalanilgan adabiyotlar _____